

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK

AHMEDOV NODIRBEK QODIRALIEVICH

**XIX asr oxiri XX asr boshlarida Namangan uezdida madaniy
hayot**

5A220201 – O'zbekiston tarixi

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: tarix fanlar nomzodi, dotsent
Boltaboev Sobirjon Dehqonboyevich

Namangan – 2012

Tadqiqotda asosiy maqsadi Namangan uezdida madaniy hayot tarixi, rivojlanish jarayoni, uning yo`nalishlarini o`rganishdan iborat.

MUNDARIJA

Kirish..... 3

I BOB

**XIX asr oxiri XX asr boshlarida
Namangan uezdida ijtimoiy-siyosiy
ahvol.....**

- 1.1. Qo`qon xonligining tugatilishi va
Namangan uzdining tashkil topishi.....1
- 1.2. Uezddagi ijtimoiy-siyosiy ahvolning
madaniy hayotga ta`siri.....1

II BOB

**XIX asr oxiri XX asr boshlarida
Namangan uezdida madaniy hayotning
o`ziga xos jihatlari.....2**

- 2.1. Namangan jadidlarining madaniy-ma`rifiy
jabhadagi faoliyatlari.....2
- 2.2. Mustamlaka sharoitida Namanganda milliy
adabiyot namoyondalarining faoliyati.....4
- 2.3. Namangan me`morchiligi.....5

Xulosa.....6

Adabiyotlar ro`yxati.....6

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritib, uni mustahkamlash va shuning asosida yangi huquqiy-demokratik jamiyat qurish yo'lga o'tdi. Mustaqillik tufayli respublikamiz ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va siyosiy hayotida juda katta tub o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davr ichida milliy davlatchilikni barpo qilish, bozor iqtisodiga o'tish, xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish bobida ulkan ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, istiqloq xalqimizning ma'naviy uyg'onishi uchun to'la imkoniyat yaratdi. YUrtimiz tarixi, qadimiy madaniyatimiz tiklanmoqda va oliy qadriyat nufuziga ega bo'lmoqda.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «...Tarix xotirasi, ...milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi...o'zbek olimlarining kuch g'ayratlari bilan tariximizning ko'pdan-ko'p g'oyat muhim sahifalari, eng avvalo, ... XIX asr oxiri - XX asr boshlari tarixi yangidan kashf etildi»¹.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov o'zining bir qator risola va nutqlarida kishilar dunyoqarashi va jamiyat mafkurasining shakllanishida ijtimoiy fanlarning xususan, tarix fanining o'rnini beqiyosligini ta'kidlab o'tdi. Jumladan, Prezidentimiz milliy mafkuraning shakllanish jarayonida tarix fanining o'rniga g'oyat yuksak baho berib: «Milliy mafkurani shakllantirishdagi eng katta manba-bu haqqoniy yoritilgan tarixdir»², -deb ko'rsatdi.

«...O'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni engib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur...»³-ligini I.A.Karimov, alohida ta'kidlab o'tdi.

Ushbu da'vatga javoban, tarixchi olimlarning izlanishlari natijasida qator tuman va viloyatlar tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlar yuzaga keldi.

Darhaqiqat, Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o'zi tug'ilib voyaga etgan qishloq, shahar, xullaski, vatanining tarixini bilishni istaydi...»⁴. Respublikamiz tarixini ayrim hududlar, shaharlar, viloyatlar misolida o'rganish, shubhasiz o'tmishimizni yanada chuqur va mukammalroq tarzda yoritilishi uchun imkoniyat yaratadi.

Namangan viloyati o'z salohiyatiga ko'ra, Respublikamizda etakchi o'rinlardan birini egallaydi. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov fikricha: «...Namangan xalqi o'ziga xos xususiyatlarini, o'z tarixi, an'ana va urf-odatlarini.....asrlar mobaynida saqlab kelmoqda. ...Namangan viloyati mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatida, ma'naviy va madaniy rivojida ko'p jihatdan etakchi o'rinni egallaydi»⁵. SHuningdek, «...Mamlakatimizning barqaror ravnaqini ta'minlashda namanganliklarning munosib hissasi bor.... Namanganliklarni o'z ma'naviy va islomiy qadriyatlarini yuksak e'zozlab kelgan el sifatida bilamiz va katta hurmat qilamiz»⁶, -degan edi.

Shu bilan birga Prezident ma'naviy hayotimizdagi o'zgarishlar haqida ham o'z fikrlarini bildirib o'tdi: «Ma'naviy hayotimizda uyg'onish yuz berdi. Tarixni tikladik. Ona tilimizni

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.-Тошкент: Ўзбекистон, 1997.-Б.140-141.

² Каримов И.А. Миллий истиклол мафкураси-халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир.-Тошкент: Ўзбекистон, 2000.-Б.34.

³ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ //Мулоқот.-1998.-№5.-Б. 13.

⁴ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.-Тошкент: Шарқ, 1998.-Б.3-8

⁵ Каримов И.А. Шу муқаддас юртга ёруғ кунлар келтириш-хар биримизнинг инсоний бурчимиздир //Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. Асарлар 8-жилд. Тошкент: Ўзбекистон, 2000.-Б.181

⁶Каримов И.А. Ҳалол яшаш ва ҳалол меҳнат қилиш бурчимиз. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. Асарлар 5-жилд. Тошкент: Ўзбекистон, 1997.- Б.219.

angladik. Ulug' bobolarimiz ruhini shod etdik. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir singari xalq jigarbandlarining nomi, izzat-ikromi, hurmati o'z joyiga qo'yildi."⁷

Darhaqiqat, keyingi yillarda o'lkamizning mustamlaka davri tarixini yoritish jarayonida Namangan uездidagi madaniy hayot haqida ham bir qator ilmiy maqolalar e'lon qilindi. Biroq, olib borilayotgan bu ilmiy tadqiqotlar asosan adabiyotchi va san'atkorlar qalamiga mansubdir. Namangan uездidagi madaniy hayot tarixini mukammal o'rgangan birorta ham ilmiy tadqiqot e'lon qilinmadi. SHuningdek, yurtimiz tarixini hududlar bo'yicha maxsus o'rganilishi masalasi bugungi kunimiz uchun g'oyat muhimdir.

Namangan uезdi tarixi mavzusi tarixchi olimlarimiz tomonidan juda kam o'rganilgan. Xalqimizning mustaqillikka erishish uchun olib borgan uzoq va mashaqqatli kurashlari tarixida namanganliklarning alohida o'z o'rinlari bor. Mustamlaka davri tarixini haqqoniy va keng ko'lamda yoritib berish ishlarini avvalo viloyatlar, tumanlar tarixini chuqurroq o'rganishdan boshlash kerak.

Tadqiqotning davriy chegarasi. Tadqiqot uchun davriy chegara qilib XIX asr oxirlaridan XX asr boshlarigacha bo'lgan davr belgilandi. Bu davrda butun Turkiston o'lkasida bo'lgani kabi Namangan uездida ham mustamlaka tartibotlari o'rnatildi. Madaniy-ma'rifiy masalalar o'z navbatida mustamlaka ma'muriyati manfaatlariga bo'sundirildi. Ayni paytda milliy ziyolilarimiz tomonidan milliy madaniyat, milliy o'zlikni saqlash borasida talaygina ishlar amalga oshirildi. SHu bois ushbu jarayonlarni to'laligicha yoritib berish, mazkur davrning o'ziga xos jihatlarni inobatga olgan holda tadqiq etish g'oyat muhimdir.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Mustaqillik yillariga qadar Namangan uездidagi madaniy hayot tarixi uyoqda tursun balki umuman uезд tarixini haqqoniy o'rganishning ham imkoni yo'q edi. Tariximizni ma'lum bir hududlar doirasida olib o'rganish fikri bugungi kunga kelibgina paydo bo'ldi. Shu sababli Namangan uездidagi madaniy hayot tarixini Turkistondagi madaniy hayot tarixiga oid manbalar orqaligina ma'lum darajada o'rganilgan edi.

Mavzuning tarixshunosligini ikki davrga ajratish maqsadga muvofiqdir: 1) Sovet davri (20-yillardan 1991 yilgacha); 2) Mustaqillik davri (1991 yildan hozirgi kungacha).

Namangan uездining XIX asr oxiri - XX asr boshlari tarixiga oid ma'lumotlar mazkur davrda yaratilgan adabiyotlarda ham uchraydi. Biroq, uезд tarixini tadqiqot ob'ekti sifatida tadqiq etish sovet davri tarixshunosligi uchun xosdir.

Mavzu tarixshunosligining birinchi davrida kommunistik mafkura tazyiqi oqibatida 20-yillarning oxirlaridan e'tiboran, tariximizga baho berish bir yoqlamalik tusini oldi. Go'yoki, butun Turkistonda bo'lgani kabi, Namangan uезdi ham chorizm istilosidan keyingina ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarda taraqqiyotga erishganligini isbotlashga urinildi. Ayrim mualliflar o'z asarlarida mustamlaka davrining ba'zi jihatlarni haqqoniy yoritishga harakat qilgan bo'lsalar-da, biroq hukmron kommunistik mafkura manfaatlaridan chetga chiqa olmaganlar⁸.

Biroq shuni ta'kidlash joizki, ushbu davrdagi barcha tadqiqotchilar chorizm davridagi ijtimoiy-siyosiy adolatsizliklarni ochib berishga harakat qilganlari holda, o'lka xalqlarining oktyabr «inqilobi»dan keyingi «ozodlik»ka erishishini ko'klarga ko'tarib maqtaganlar.

SHuni alohida ta'kidlash joizki, faqat mustaqillik yillariga kelibgina o'lakamizning xususan, Namanganning mustamlakachilik davri tarixi haqida haqqoniy ilmiy tadqiqotlar yaratish imkoniyatlari paydo bo'ldi. So'nggi yillarda olib borilgan ayrim tadqiqotlarda ham Namanganning XIX asr oxirlari XX asr boshlari tarixining ba'zi jihatlarga e'tibor qaratib o'tildi⁹.

⁷ Каримов И. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида.-Тошкент: Ўзбекистон, 2011.-Б.425.

⁸ Акрамов З.М. Наманганская область (историко-географический очерк).-Тошкент: Из-во АН Уз ССР, 1954.-С.32; Ёкубов Б. Фарғона водийсида Совет хоқимиятини ўрнатиш учун кураш.-Тошкент: Қизил Ўзбекистон.-1954.-Б.15

⁹ Исмоилова Ж.Х. Наманганда 1916 йил кўзғолони //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар.-1997.-№ 5.-Б.29.; ўша муаллиф: Фарғона водийсида 1916 йилги халқ кўзғолони

Masalan, tarix fanlari nomzodi Y. Qosimovning «Qora koʻzoynak bilan yozilgan tarix» kitobida 1917 yil fevral inqilobidan keyin tashkil topgan Namangan uездidagi milliy-demokratik tashkilotlar, istiqloqlchilik harakati haqidagi ayrim maʼlumotlar keltirib oʻtiladi¹⁰.

Tarixchi olim S.Boltaboev Turkistonda vaqf mulklari tarixiga bagʻishlangan nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferatida vaqf mulklariga boʻlgan chor maʼmurlarining munosabati, uning oqibatida madaniy hayot sohasida kelib chiqqan muammolarga alohida eʼtibor qaratib oʻtgan¹¹.

SHu bilan birga tadqiqotchi K.Vohidova oʻzining “Ishoqxon Junoydullox oʻja oʻgʻli Ibrat va uning ilmiy-tarixiy merosi” nomli dissertatsiyasida ham Ibrat faoliyatini yoritish jarayonida qisman Namangan uездidagi madaniy hayotning ayrim jihatlarini yoritib oʻtgan¹².

Tadqiqotchi T.Qozoqov ham oʻz ilmiy tadqiqotida Fargʻona vodiysidagi jadidchilik harakati tarixini yoritish bilan birga Namangan uездidagi madaniy hayotning ayrim jihatlariga toʻxtalib oʻtgan¹³.

Mustaqillik yillarida yaratilgan ayrim adabiyotlarda viloyatdagi madaniy hayot tarixiga oid maʼlumotlarni ham uchratish mumkin. Masalan, e.YU.Mirzaliyev va M.T.Bozorovalar oʻzlarining «Namanganning XIX asr oxiri XX asr boshidagi sotsial-iqtisodiy va madaniy rivojlanishi» nomli risolalarida asosan Namangan shahrining 1917-1918 yillardagi madaniy hayotiga oid maʼlumotlarni ham berganlar¹⁴. Asarda mualliflar viloyatda sovet hokimiyati dastlabki oʻrnatilgan kezlardagi chop etilgan gazeta va jurnallar, ushbu nashrlarning muharrirlari haqida toʻxtalib oʻtganlar.

Keyingi paytlarda Fargʻona vodiysi, xususan Namangan viloyati tarixini oʻrganish boʻyicha oʻtkazilgan ilmiy anjumanlar va ulardagi maʼruzalar asosida nashr etilgan toʻplamlar mavzu tarixshunosligini oʻrganishda muhim ahamiyat kasb etdi. Masalan, 2000 yil 23-24 noyabr kunlari Namangan Davlat universitetida «Tarix va taqdir: Fargʻona vodiysi tarixini tadqiq etish muammolari» mavzusida Respublika ilmiy amaliy anjumani boʻlib oʻtdi. Anjumanda viloyatning eng qadimgi davrlardan hozirgi kunlarga boʻlgan tarixiga oid koʻplab maʼruzalar tinglandi. Anjuman materiallari asosida chop etilgan toʻplamda viloyatning mustamlakachilik, sovet davri va mustaqillik yillari tarixiga oid ayrim yangi maʼlumotlar keltirildi¹⁵.

Mavzu tarixshunosligi tahlili shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekiston tarixining ajralmas qismi boʻlgan Namangan uездining XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi tarixi bir qator tarixchi va adabiyotchilarning ilmiy maqola va risolalarida qisman yoritilgan boʻlsada, u alohida ilmiy

Ўзбекистоннинг янги тарихи. Концептуал-методологик муаммолар.-Тошкент: Академия, 1998.-Б.122.; Аъзамхўжаев С.С. Туркистон Мухторияти.-Тошкент: Маънавият, 2000.-Б.131.; Раджабов К. К. Истиклолчилик харакати в Ферганской долине: Сущность и основные этапы развития (1918- 1924 г.г.): Автореф. дис... канд. ист. наук.-Т., 1995.-32 с. Вохидова К.А. Исхакхан Жунайдуллаходжа Ибрат и его научно-историческое наследие. Автореф: дисс. к.и.н.-Ташкент, 2002.-28с. Казаков Т.К. Общественно-политическое положение и джадидское движение в Ферганской долине в начале XX века. Автореф: дисс. к.и.н.-Ташкент, 2001.-26с.;

¹⁰ Қосимов Ў. Қора кўзойнак билан ёзилган тарих.-Наманган, 1993.-Б.7,79.

¹¹ Болтабоев С. История вакуфных имуществ в Туркестане во второй половине XIX и начало XX веков. Автореф: дисс. к.и.н.-Ташкент, 1995.-26с.

¹² Вохидова К.А. Исхакхан Жунайдуллаходжа Ибрат и его научно-историческое наследие. Автореф: дисс. к.и.н.-Ташкент, 2002.-28с.

¹³ Казаков Т.К. Общественно-политическое положение и джадидское движение в Ферганской долине в начале XX века. Автореф: дисс. к.и.н.-Ташкент, 2001.-26с.

¹⁴ Мирзаалиев Э.Ю., Бозорова М.Т. Наманганнинг XIX аср охири XX аср бошидаги социал-иқтисодий ва маданий ривожланиши.-Наманган: 1998.- Б.45.

¹⁵ Тарих ва тақдир: Фарғона водийси тарихини тадқиқ этиш муаммолари (Республика илмий-амалий анжумани материаллари) Наманган: 2000.-Б.72-101

tadqiqot ob`ekti bo`lgan emas. Bu esa, mazkur mavzuni dissertant tomonidan tadqiqot ob`ekti sifatida tanlanishi uchun asos bo`lib xizmat qildi.

Ushbu mavzuga oid asarlar tahlili kam o`rganilgan muammolarni aniqlab, ularni yoritishga yangicha yondashuv lozimligini ko`rsatadi. Bu yondashuv Farg`onadagi jadidchilik harakatining barcha oqim va g`oyalari bilan birgalikda tahlil qilish, uning rivojlanish jarayonini o`rganish bilan belgilanadi.

Tadqiqotda asosan quyidagi muammolarga echim topish asosiy maqsad qilib olindi:

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqotda asosiy maqsad etib, Namangan uezdida madaniy hayot tarixi, rivojlanish jarayoni, uning yo`nalishlarini o`rganishdan iborat. Mazkur maqsadni amalga oshirish o`z navbatida quyidagi vazifalarni belgilab beradi:

- ◆ Namangan uezdining Rossiya chorizmi mustamlaka viloyati bo`lmish Farg`ona viloyatining bir qismi ekanligini tahlil qilish;
- ◆ Mustamlaka sharoitidagi ijtimoiy-siyosiy ahvol va uning madaniy hayotga ta`siri o`rganish;
- ◆ Namangan jadidlarining ma`rifatparvarlik faoliyatlari: maktab, madrasa, matbuot va teatr san`ati sohasidagi faoliyatlarini ochib berish;
- ◆ Namanganlik atoqli jadid namoyandalari hayotini o`rganish;
- ◆ Namangan me`morchilik obidalari tarixini yoritib berish;
- ◆ Tadqiqot natijalari asosida umumlashma xulosalar qilib, ushbu sohada yana o`rganilishi lozim bo`lgan masalalar yuzasidan aniq amaliy takliflar bildirish.

Dissertatsiyaning uslubiy asosi. Masalani o`rganish jarayonida tadqiqotchi tomonidan tarixiylik tamoyiliga, yangicha fikrlash, haqqoniy ilmiy tahlilga, bo`lib o`tgan voqealarni o`zaro dialektik aloqador deb qarashga asoslandi. Tadqiqot jarayonida mavzuga umummilliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy istiqloq mafkurasidan kelib chiqqan holda yondashildi. Ushbu tadqiqotni yoritishda Prezident I.A.Karimovning asarlari, nutq va maqolalarida ilgari surilgan g`oya va fikrlar metodologik asos bo`lib xizmat qildi. Muallif mustaqillik ruhi bilan sug`orilgan ustivor uslubiy va ilmiy-nazariy yo`l-yo`riqlardan, metodologik asoslardan kelib chiqqan holda mazkur tadqiqotni yoritishga harakat qildi.

Tadqiqotning manbalari. Tadqiqotning asosiy manbalari bo`lib Namangan viloyati Davlat Arxivining quyidagi fondi xizmat qildi:

- 796 fond.

YUqorida qayd etilgan hujjatasrov fondida muallif tomonidan Namanganda yangi usul maktablarining ochilishi, darsliklar yozilishi, uslubiy qo`llanmalar, o`quv jarayonlarining tashkil qilinishi, kutubxonalarning ochilishi va hokazolarga oid Namangan jadidlari faoliyatini yoritib beruvchi juda ko`p ma`lumotlar to`plandi.

Namangandagi madaniy hayot tarixini yoritib berishda XX asr boshlarida o`lkamizda chop etilgan va bugungi kunda A. Navoiy nomli Respublika Davlat kutubxonasining "Nodir kitoblar" bo`limida hamda Respublika Davlat Milliy Kitob Palatasida saqlanayotgan milliy matbuot namunalari - «Sadoyi Farg`ona», «Sadoyi Turkiston», «Turkiston viloyatining gazetasi», «Kengash» va boshqa gazeta-jurnallardagi ma`lumotlar asosida chop etilgan so`nggi davrlardagi ilmiy maqolalardan keng foydalanildi.

YUqoridagi manbalar asrimiz boshlarida Namangan uezdida ijtimoiy-siyosiy vaziyat, mustamlakachilik zulmi, xalqning madaniy-maishiy turmush tarzi, milliy ziyolilarning kayfiyati, jadidchilikning paydo bo`lish va shakllanish jarayonlarini tadqiq etish uchun g`oyatda ahamiyatlidir.

Umuman olganda hujjatasrov fondlari, ilmiy asarlar, davriy matbuot namunalari mazkur tadqiqotning asosiy manbalaridir.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi shundaki, unda XIX asr oxiri XX asr boshlarida Namangan uezdida ijtimoiy-siyosiy vaziyat, o`lkadagi ma`naviy hayot ilk bor xolisona, ob`ektiv tahlil etildi.

Tadqiqotda XIX asr oxiri XX asr boshlarida Namangan uezdida madaniy hayot yangicha ilmiy yondashuv asosida o`rganildi va yoritib berildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Dissertatsiyadan XIX asr oxiri XX asr boshlarida Namangan uezdining chorizm mustamlakachiligi davri tarixiga bag'ishlangan maxsus monografiyalar, o`quv qo`llanmalari, darsliklar yaratishda hamda tadqiqotda keltirilgan ma`lumotlardan barcha o`quv yurtlarida va malaka oshirish kurslarida XX asr boshlaridagi milliy ziyolilar faoliyatini yoritib berishga qaratilgan maxsus kurslar va seminarlar tashkil etishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalariga ko`ra dissertant tomonidan To`raqo`rg`on tumani 17-ixtisoslashgan maktab internatining o`lkashunoslik to`garagi a`zolari uchun «XIX asr oxiri XX asr boshlarida Namangan uezdidagi madaniy hayot» deb nomlanuvchi maxsus mashg`ulot ishlanmasi ishlab chiqildi.

Tadqiqotning amalda sinalganligi. Dissertatsiyaning asosiy ilmiy xulosalari ilmiy jamoatchilikka Namangan Davlat universiteti "Tarix fanlari" kafedrasida bo`lib o`tgan ilmiy muhokamalarda shuningdek, muallif tomonidan chop etilgan ilmiy maqolalar orqali etkazilgan.

Tadqiqotning tarkibi. Dissertatsiya kirish, ikki bob, xulosa, ilova va adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I Bob. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Namangan uezdida ijtimoiy-siyosiy ahvol

1.1. Qo`qon xonligining tugatilishi va Namangan uzdining tashkil topishi.

Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilishi, o`lkani Rossiya imperiyasining agrar xom ashyo etkazib beradigan mustamlakasiga aylantirdi. YAngi kapitalistik munosabatlarning kirib kelishi mustamlakachilik tuzumi sharoitida mahalliy aholi uchun fojeali xususiyat kasb etib, o`lkada ijtimoiy qarama qarshiliklarni nihoyatda kuchaytirib yubordi.

Qo`qon xonligi tugatilgach, o`rnida tashkil etilgan Farg`ona viloyati mustamlakachilik zulmining yorqin namunasiga aylandi.

1876 yil Qo`qon xonligidagi xalq harakati shafqatsizlarcha bostirilgach, uning barcha hududlari ruslar tomonidan bosib olindi. 1876 yilning 19 fevralida imperator Aleksandr II ning farmoni bilan Qo`qon xonligi tugatiladi va uning o`rnida Farg`ona viloyati tashkil etildi.

Farg`ona viloyati iqtisodiy va mehnat resurslari jihatidan Turkiston general-gubernatorligidagi etakchi viloyat hisoblangan. U etti uezd (Qo`qon, Namangan, Skobelev, Andijon, CHimyon, CHust va O`sh) dan tashkil topgan edi ¹⁶.

Keyinchalik uездlar soni beshtaga keltirildi. 1887 yilda CHust uezdi Namangan uezdiga birlashtirilib, 29 volostga, volostlar esa 151 ta qishloq jamoasiga bo`lingan¹⁷.

Namangan uezdi viloyatda o`ziga xos nufuzga ega bo`lib, u ham o`z navbatida volostlarga bo`lib idora qilingan. Namangan uezdi 19 ta volost (Kapa, To`raqo`rg`on, Axxi-SHahand, Varzik, Pop, Olmos, CHodak, Asht, Bobodarxon, Nanay, Boyaston, Koson, Tergachi, Bagish, Saru, YAngiqo`rg`on, CHortoq, Uychi, Peshqo`rg`on) dan iborat bo`lib, 1900 yilgi ma`lumotlarga ko`ra, uезд aholisi 314300 kishini tashkil etgan². Namangan uezdining eng yirik shahri va ma`muriy markazi Namangan shahri bo`lib, unda 61388 nafar aholi yashar edi (1900 y.)¹⁸.

1898 yilgi xalq qo`zg`olonining shafqatsizlarcha bostirilishi, mahalliy aholidan qattiq o`ch olinishi kishilarni irodasini buka olmadi. Aksincha, xalqning mustamlakachilarga bo`lgan qahrg`azabini oshishiga sabab bo`ldi, xolos. YAna shu kabi xalq harakatlarining paydo bo`lishidan cho`chigan podsho amaldorlari Farg`ona vodiysi aholisi ustidan nazoratni kuchaytirdilar.

Mustamlakachilar uchun Farg`ona vodiysi paxta etkazib beruvchi asosiy baza hamda ijtimoiy, iqtisodiy va milliy zulm ob`ektiga aylandi¹⁹. Bu zulmni amalga oshirishda, o`lka boylklarini talashda temir yo`llar muhim vosita bo`ldi.

Dastlabki temir yo`l Farg`ona vodiysiga 1899 yil kirib keldi. 1911-1913 yillarda Qo`qon-Namangan, 1916 yilda Namangan-Jalolobod temir yo`llari qurildi. Natijada, vodiylar metropoliyaning oshkora sur`atdagi xom-ashyo bazasiga va tayyor mahsulotlar sotiladigan bozoriga aylandi. SHundan so`ng, paxta ekin maydonlari kengaydi va u asosiy ekin turiga aylandi. Masalan, 1899 yil Namangan uezdida paxta ekiladigan erlar 14 ming gektarni tashkil etgan bo`lsa, 1911 yilda 45 ming gektarga etdi. Viloyatda aholining qashshoqlashuvi kuchaydi, ersiz dehqonlar soni ortib bordi. Masalan, 1908 yilda Farg`ona vodiysida 18 foiz oila ekin maydonlariga ega bo`lmagan²⁰.

¹⁶ Касымбеков К. Ф. Из истории народных движений в Фергане в конце XIX-начале XX века. Тошкент: Фан, 1978.-С.10.

¹⁷ Бозарова М., Мирзалиев Э. Наманган шаҳри тарихига бир назар (маърузачига ёрдам).- Наманган, 1998.-Б.7.

¹⁸ Бозарова М., Мирзалиев Э. Наманган шаҳри тарихига бир назар (маърузачига ёрдам).- Наманган, 1998.-Б.36.

¹⁹ Қосимов Й. Ўзбекистон тарихини ўқитишда Наманган шаҳар тарихи материалларидан фойдаланиш.-Тошкент: 1990.-Б.26.

²⁰ Абдуллаев О. Наманган вилояти (Табиати, аҳолиси, хўжалиги).- Наманган: Наманган вилояти ноширлик бўлими, 1995.-Б.48.

O'lkada metropoliya uchun nafaqat xom-ashyo, balki, davlat hazinasi uchun soliq daromadlarining ham manbasiga aylandi. Turkistonda yildan-yilga soliq zulmi ortib boraverdi. Faqatgina 1900 yilda Farg'ona aholisi davlat hazinasiga er solig'idan tashqari 4 581 620 rub. 70 kop. mablag' topshirdilar. Huddi shu yil viloyat aholisi 399 467 rub. 34 kop. miqdoridagi mahsulot solig'ini ham bajardi. Mazkur yig'implarning kattagina qismi shubhasiz Namangan uezdi zimmasiga to'g'ri kelar edi. Bunday rasmiy soliqlardan tashqari, volost kotiblari, oqsoqol va boshqa amaldorlarning ta'minoti uchun «jamoat tushumi» deb ataluvchi soliqlar ham yig'ib olinar edi²¹. Natijada mahalliy aholining bo'ynidagi qarzlari miqdori yil sayin oshib borar edi. Masalan, paxtakorlarning davlat va xususiy banklardan 1912 yildagi qarzlari 156 mln. 712 ming rublni tashkil etdi. SHundan 80 mln. 979 ming rubl pul Farg'ona viloyati paxtakorlari zimmasiga tushgan edi²². Bu holat paxtakor dehqonlarning xonavayron bo'lishiga olib keldi.

Mustamlaka sharoitida Namangan uezdida nafaqat dehqonlarning, balki o'n minglab hunarmand-kosiblarning ham ahvoli ayanchli holatga tushib qoldi. Bunga Rossiya sanoati ishlab chiqargan uy-ro'zg'or ashyolari, ayniqsa, engil sanoat mahsulotlari bilan o'lkada bozorlarining to'ldirilishi sabab bo'ldi. Bu mahsulotlar bozorlardagi mahalliy hunarmandlar tomonidan ishlab chiqarilgan mollarni siqib chiqara boshladi. Natijada hunarmandchilikning ko'plab turlari inqirozga uchradi. Bu esa qashshoq aholi sonining ortib borishiga sabab bo'ldi.

Milliy hunarmandlarning xonavayron bo'lishini Hamza Hakimzoda Niyoziy «Sadoyi Turkiston» gazetasidagi maqolalarining birida bunday ta'riflaydi: «...va ba'zilar etushdura olmay butun bu hunarlaridan kechub boshqa bir yo'l va kuyg'a kirub ketmakdurlar...har bir kasb ahli shundog'dur...Mana bu razolat, xirachilik va xo'rlik na erdan keldiq...Oh, hunarlarimiz! Qaysi tarafg'a va kimlar qo'lig'a asir bo'ldiq Pul va mollarimiz qaysi tarafg'a hijrat etmakdudurq...Bu ho'rliklarning ilmsizlikdan kelganidan shoyad uyalgan va aqlga solib qaragan kishi bilur»²³.

Iqtisodiy qiyinchiliklar xalqning zulmga qarshi ko'tarilishlarining kelib chiqishiga turtki bo'ldi.

Jumladan, 1896 yil Namangan uezdining Axsi-SHaxand volostida dehqonlarning chiqishlari, volostlarida mahalliy hokimiyat zulmiga qarshi xalq chiqishlari bo'ldi²⁴.

SHu kabi g'alayon to'lqinlaridan tahlikaga tushgan Farg'ona viloyati harbiy gubernatori viloyat ma'muriyati-uezd boshliqlari va boshqa amaldorlarga 1904 yilning 13 fevralida maxsus ko'rsatmalar beradi. Ko'rsatmalarida u Farg'ona jumladan Namangan uezdi aholisining kayfiyati va siyosiy xayrixohligini sinchkovlik bilan kuzatib borishni, buning uchun esa maxsus ayg'oqchilar tayinlashni tavsiya etadi²⁵.

Ma'lumki, Turkistonda harbiy-politsiya boshqaruvida asoslangan mustabid ma'muriyat hukmronlik qilib, mustamlakachi podsho amaldorlari o'zlarini o'lkaning cheksiz huquqlarga ega bo'lgan hukmdorlari deb hisoblaganlar. Bunday siyosat o'lkada rus mustamlaka rejimining amalda bo'lishi uchun nihoyatda qo'l kelar edi.

XX asr boshlariga kelib jahon miqyosida sodir bo'layotgan inqilobiy o'zgarishlardan xavfsiragan mustamlakachilar o'lkada xalqlari ustidan siyosiy nazoratni yanada kuchaytirdilar. Buning sababi, Rossiya musulmonlari orasida pirovard maqsadi milliy mustaqillik bo'lgan jadidchilik harakatining keng yoyilishi, Turkiya, eron inqiloblari, ilg'or yo'nalishdagi nashr va adabiyotlarning bu erlarga kirib kelishi natijasida XX asr boshlariga kelib mahalliy aholi, xususan ziyolilarning ijtimoiy-siyosiy faolligining birmuncha oshishi edi.

²¹ Касымбеков К. Ф. Кўрсатилган асар, С.16-17

²² Зиёев Х. Туркистонда Россия тажоввузи ва хукмронлигига қарши кураш.-Тошкент: Шарк, 1998.-Б. 400-401.

²³ Воҳидова К. Фарғонада жаҳид мактаблари //Фан ва Турмуш.-2000.-№5.-Б.23-24.

²⁴ Ўзбекистон тарихи. 9-синф учун дарслик.-Тошкент: Ўқитувчи, 2010.Б.65.

²⁵ Казаков Т.К. Общественно-политическое положение и джадидское движение в Ферганской долине в начале XX века. Автореф: дисс. к.и.н.-Ташкент, 2001.-С.14.

Mahalliy va podsho amaldorlarining o`tkazgan zulmlari, iqtisodiy og`ir ahvol, ijtimoiy adolatsizliklar oqibatida Namangan uezdi dehqonlarining bir necha bor tarqoq holdagi ko`tarilishlari bo`lib turdi.

Aholi turmush darajasining tushib borishi, shariat me`yorlarining buzilishi, milliy va diniy qadriyatlarning oyoq osti qilinishi, jinoyatlar sonining ortib borishi, mahalliy aholining mavjud tuzumga nisbatan nafratini yanada oshirar edi. SHu bois turli ijtimoiy tabaqalar mustamlaka zulmidan xalos bo`lishning har xil yo`llarini izlardilar.

Birinchi jahon urushida Rossiyaning ishtiroki va urushdagi mag`lubiyatlar, nafaqat imperiyaning markaziy hududlarida, balki chekka mustamlakalar, xususan, Turkistonda ham xalq ommasi noroziligining kuchayishi, ijtimoiy-siyosiy faolligining ortishiga sabab bo`ldi. Bundan xavfsiragan mustamlakachilar aholining tobe holatda tutib turishning turli yo`llarini izlay boshladilar. Mahalliy aholida hukumatga, podshoh va uning oila a`zolariga sadoqat ruhini kamol toptirish uchun chor amaldorlari barcha masjidlarda podshoh va uning oila a`zolari nomiga xutba o`qilishini tashkillashtirdilar.

Turkiston general-gubernatorligi mahkamasi tomonidan Farg`ona viloyati harbiy gubernatori nomiga 1915 yil 19 fevralda yuborilgan xatda aytilishicha, birgina Farg`ona viloyati uchun imperator nomiga o`qiladigan xutbaning mahalliy tilda bitilgan 1400 nusxadan iborat matni yuborilgan²⁶.

SHuningdek, ushbu xutbani viloyatning barcha masjidlarida majburiy tarzda o`qilishi buyurilgan. Bu esa Islom asoslariga mutlaqo zid bo`lib, mahalliy aholining diniy e`tiqodlarini oyoq-osti qilish demakdir.

Bu kabi holatlar aholi orasida norozilik kayfiyatlarini tug`dirishi tabiiy bir hol edi. 1916 yilning 30 martida Namangan uezdi shahar atrofi uchastka pristavi Namangan uezdi boshlig`iga yozgan raportida ta`kidlashicha, shu uezdning Qirg`izqo`rg`on volostiga qarashli Kattatoshbuloq qishlog`idagi masjid imomi Mirza Mahmudhoji To`ychiboev imperator nomiga yozilgan xutba duosini o`qishni xohlamagan. Bu holatni u «Kimda-kim kofir podshohga atab duo qilsa dindan chiqadi», -deb izohlagan. Lekin mahalliy aholini so`rov qilinganda, bu haqida politsiyaga xabar bergan ikki kishidan boshqa hech kim bu faktni tasdiqlamaydi²⁷.

YUqoridagi voqeadan shunday xulosa olish mumkinki, bu davrga kelib erli aholining siyosiy faolligi oshgan. Aholining ziyoli qatlamlari qarashlarida nafaqat jadidlar, balki ulamolar orasida ham mustamlaka tuzumiga nafrat, chirib borayotgan imperiya hokimiyatining yaqin kunlardagi inqiroziga ishonch o`z aksini topgan edi.

Podsho hukumati o`lkada o`ziga tayanch yaratish maqsadida Turkiston erlariga rus aholisini ko`chirish siyosatini o`tkazdi. Paxta ekilmaydigan hududlardagi mahalliy aholining erlari tortib olinib, rus dehqonlariga berildi.

1916 yil 25 iyundagi Podsho Nikolay II ning front ortidagi ishlar uchun erli aholidan mardikorlikka olish haqidagi farmoni butun Turkistondagi kabi Namangan uezdida ham mahalliy aholining keskin noroziligini keltirib chiqardi. Bu noroziliklar ommaviy g`alayonlar, kichik amaldorlarning uylariga o`t qo`yish va o`ldirishlarda o`z ifodasini topdi. Podsho farmoniga muvofiq, Turkiston general-gubernatori 1916 yil 23 avgustda buyruq chiqardi. Bunga ko`ra, faqat Farg`ona oblastining o`zidagina 51 233 kishi mardikorlikka safarbar qilinishi lozim edi²⁸.

YUqoridagi farmon e`lon qilingach, ommaviy norozilik Namangan shahrida ham bo`ladi. Harbiylar tomonidan g`alayonchilar pulemyotlardan o`qqa tutiladi. Natijada 69 kishi o`ldiriladi va yaralanadi²⁹.

²⁶ Казаков Т.К. Общественно-политическое положение и джадидское движение в Ферганской долине в начале XX века. Автореф: дисс. к.и.н.-Ташкент, 2001.-15с.

²⁷ Казаков Т.К. Б.16.

²⁸ Ёкубов Б. Кўрсатилган асар, Б.10.

²⁹ Зиёев Ҳ. Кўрсатилган асар, Б.398.

Birinchi jahon urushining salbiy ta'siri Turkiston xalqlari boshiga ko'plab azob-
uqubatlarni soldi. Paxta yakkahokimligini zo'r berib kuchaytirish, paxta ekin maydonlarining
kengaytirilishi oqibatida o'lkada g'alla etishtirish va chorvachilik orqaga qarab ketdi.

Butun o'lkada bo'lgani kabi Namangan uezdida ham don taqchilligi yuzaga keldi. 1916
yili Farg'ona viloyatining odatda oladigan g'allasi 12-14 pudga kamaydi. Narx-navo keskin
oshdi. Ilgari 50 so'm turadigan otning narxi 80-85 so'mga chiqdi. G'alla va nonning narxi ham
oshib ketdi³⁰.

Turkiston rayon muhofaza bo'limi (oxranka) ning «Vstrechnov» laqabli xodimi tomonidan
1917 yil 12 fevralida berilgan axborotnomada Farg'ona viloyati aholisining mavjud ijtimoiy-
siyosiy vaziyatga munosabati qayd qilib o'tilgan. Unda aytilishicha: «...Viloyat aholisi oziq-
ovqat mahsulotlarining va birlamchi ehtiyojlar uchun zarur narsalarning etishmasligidan
qiynalmoqda. Barcha holatlar uchun odamlar hukumatni ayblamoqdalar va aytadilarki, davlat
hokimiyati urush tufayli yuzaga kelgan oziq-ovqat va boshqa shu kabi muammolarni hal qilish
darajasida emas. Faqat Davlat Dumasigina xalq manfaatini ko'zlab ish yuritadi va bunday
masalalarni Davlat Dumasigina hal qilishi mumkin. SHunday qilib, jamiyatning barcha
tabaqalari urush tugashini intizorlik bilan kutmoqda»³¹.

Podsho hukumati aholi faolligining oshib borayotganligidan cho'chib, Turkiston xalqlarini
jahon taraqqiyotidan uzib qo'yish maqsadida musulmon davlatlaridan o'lkaga kirib kelayotgan
ilg'or nashrlarni ta'qiqlash choralari ko'rdi. SHunday bo'lishiga qaramay, birmuncha
taraqqiyotga erishgan musulmon mamlakatlaridagi inqilobiy voqealar tafsilotlariga
bag'ishlangan adabiyotlarning bu erga kirib kelishi to'xtamadi. Bunday adabiyotlarning o'lkaga
kirib kelishi aholi turli tabaqalarining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshishi va milliy ozodlik
g'oyalarning shakllanishiga o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatdi.

Uezdda dastlab Bog'chasaroyda chiquvchi «Tarjumon», Qozondan chiqadigan «Vaqt»,
«YUlduz» va boshqa gazeta va jurnallar Namangan jadidlari faoliyatida o'zining sezilarli
ta'siriga ega edi. Ushbu nashrlar orqali taraqqiyparvarlar dunyo xalqlarining milliy uyg'onish
g'oyalari bilan tanishib borganlar. Masalan, Ishoqxon Ibrat ham 1883-1885 yillarda Qo'qonning
Tunqator madrasasida ta'lim olib yurgan paytlarida «Tarjumon» gazetasi bilan muntazam
ravishda tanishib borgan. Adabiyotchi olim U. Dolimovning bergan ma'lumotlariga ko'ra, Ibrat
tomonidan tashkil etilgan «Ishoqiya» kutubxonasida «Tarjumon» gazetasining hatto 1884 yilgi
boylamlari ham bo'lgan³².

Xulosa qilib aytganda, o'lkadagi ijtimoiy adolatsizlik, erlilarni jaholat botqog'ida,
qashshoqlikda qoldirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan chorizmning mustamlakachilik
siyosati mahalliy xalq ilg'or fikrli ziyolilarining tabiiy ravishda noroziligini keltirib chiqarar edi.
Namangan uezdi ham Rossiyaning bevosita mustamlakasi bo'lganligi bois markaziy
hududlardagi siyosiy o'zgarishlar bu erlarga ham sezilarli ta'sirini o'tkazar edi.

1.2. Uezddagi ijtimoiy-siyosiy ahvolning madaniy hayotga ta'siri.

CHor Rossiyasi Turkiston o'lkasini egallagan kunlaridan boshlab o'zining iqtisodiy
mustamlakachilik niyatlarini amalga oshirishga kirishdi.

Buning uchun, birinchi navbatda, Rossiya gubernyalaridagi sanoat korxonalarini muntazam
ravishda xom-ashyo bilan taa'minlab turuvchi temir yo'llar qurildi.

Namanganda hunarmandchilik va sanoatning rivojlanishi XIX asrning ikkinchi yarmida
Turkiston iqtisodiy hayotida xonaki saioat va hunarmandchilikning ko'p turlari katta ahamiyatga
ega bo'ldi. Hunarmandchilik sanoati shaharlarda va katta qishloqarda avj olgan bo'lib, ko'p
rayonlarda hunarmandchilik dehqonchilikdan hali tamomila ajralib chiqmagan edi. SHahar va
qishloqlarda hunarmandlar bog'dorlik va uzumchilik bilan shug'ullanib, bulardan qo'shimcha
daromad olgan hunarmandlarning ijtimoiy tashkiloti feodal xarakterda bo'lib, tsex

³⁰ Зиёев Ҳ. Кўрсатилган асар, Б.402.

³¹ Содиқов Ҳ. Туркистон уч инқилоб даврида //Фан ва Турмуш.-1990.-№1.-Б.13-15.

³² Долимов Улуғбек. Исҳоқхон Ибрат.-Тошкент: Шарқ, 1994.-Б.11.

korporatsiyalaridan iborat edi. Hunarmandchilik ustaxonalarida tsex ustavlariga amal qilib ish olib borilgan.

Kasb nasldan-naslga meros bo'lib keldi, O'rta Osiyodagi hunarmandchilik sanoatining xususiyati mana shunda edi. O'rta Osiyoni Rossiya egallab olgandan keyin hunarmandlarda yangi ishlab chiqarish kurollari (boltalar, tiskalar, vint yasaydigan asboblari, randalar) ham paydo bo'ldi, ular bu asboblarni rus masterlaridan qurib, ishlata boshladilar. Tikuvchi kosiblar o'rtasida tikuv mashinalari ko'paya bordi³³.

Rossiyadan fabrika-zavod mahsulotlari tobora ko'p keltirilganligi natijasida hunarmandchilik ishlab chiqarishning ko'p tarmoqlari qattiq inqirozga uchradi. Ip yigirish va to'qimachilik ancha qisqardi. Lekin to'qimachilikning ba'zi tarmoqlari, masalan, bo'yalmagan ipdan mato to'qish rivojlana bordi. CHopon va boshqa kiyimlar tikish hamda ko'rpa qavish avj oldi.

Ayniqsa, Marg'ilon va Namanganda ipakchilik va tikuvchilik sanoati rivojlanib bordi. Metall ashyolar ishlab chiqarishi juda kamayib ketdi. Quyma mis va kumush ashyolar ishlash kamaydi. Bu ish O'rta Osiyoda juda kam taraqqiy etdi. Ammo ketmon, omoch tishlari, bolta, pichoq o'roq va boshqa hildagi xo'jalik qurollari ishlab chiqarish o'z ahamiyatini yo'qotdi. Kulollik va sopol buyumlari ishlab chiqarish juda kamayib ketdi. Binokorlik va yog'och ashyolar ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi hunarmandchilikning hamma tarmoqlari saqlanib qoldi.

YUqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, Rossiya kapitalistik sanoatining ta'sirida Turkistonda umuman hunarmandchilik ishi tushkunlikka yuz tutdi. Bor-yo'g'idan ayrilgan mayda hunarmandlarning ahvoli nihoyatda og'irlashdi. Natijada bu mayda hunarmandlar noiloj bo'lib, eng og'ir shartlar bilan boy ustalar qo'lida ishlashga majbur bo'ldilar. YOki yollanib ishlaydigan ishchilar qatoriga o'tdilar.

O'lkaning ko'plab unumdor erlariga paxta ekilishi boshqoqli ekinlar ekiladigan maydonlarning qisqarishiga olib keldi. Ming yillar davomida o'zini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlab kelgan mahalliy aholi asta-sekin oziq-ovqat masalasida Rossiyaga qaram bo'lib qoldi. o'alla mahsulotlari o'lkaga Rossiyadan keltirilib, unga chor ma'murlarining o'zi narxnavoni belgiladi. Sanoatda band bo'lgan mahalliy ishchilarning turmush sharoiti yana ham og'ir edi. CHunki ularning ish haqi evropalik ishchilardan 2-2,5 barobar kam bo'lsa, olinadigan soliqlar va jarimalar shuncha ko'p edi.

CHor hukumati sun'iy sug'orish ishlariga asosiy e'tibor qaratib, oqsoqollar va miroblarga maosh to'lab turgan. Masalan, 1906 yilda Namangan uezdida oqsoqollarga 10 812 so'm miqdorida maosh to'langan³⁴.

CHor Rossiyasi tomonidan Turkistonni zabt etilishi natijasida, bu erda ham yirik korxonalarining tashkil topishiga olib keldi. Bu jahon taraqqiyotida ob'ektiv holat bo'lib, u endilikda Turkistonni chetlab o'tishi mumkin emas edi. Xilma-xil shirkatlar, artellar, manufaktura, fabrika va zavodlarning oyoqqa tura boshlashi va ularni ko'plab miqdorda iste'mol buyumlari ishlab chiqarishi, ko'p mehnat talab qiluvchi va asosan qo'l mehnatiga moslashgan hunarmandchilikning kasodga (inqiroz) uchrashiga olib keldi. CHunki qo'l mehnatiga moslashgan hunarmandchilik fabrika yoki zavod bilan raqobatlasha olmasligi muqarrar va ularning sinishi aniq edi. Bunday holat jahon ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida tabiiy zaruriyat bo'lgan bo'lsa, hunarmandchilikning inqirozga yuz tutishida yana boshqa sabablar ham mavjud edi.

Har bir xalqning milliy madaniyati, turdosh yoki o'zaro ta'sir yordamida rivojlansa, ikkalasi ham uyg'unlashgan holda ravnaq topishi muqarrardir. O'rta Osiyo xalqari, ya'ni, o'zbek, turkman, qozoq, tojik, qiriz, qoraqalpoq xalqlari madaniyati bunga misol bo'la oladi.

Agar milliy madaniyatga boshqa bir turdosh yoki turdosh bo'lmagan madaniyat tazyiq, ya'ni, zo'ravonlik bilan qurilsa, u holda uning rivojlanishi u yoqda tursin, balki ikkalasi iqirozga

³³ Мирзаалиев Э.Ю., Бозорова М.Т. Наманганнинг XIX аср охири XX аср бошидаги социал-иқтисодий ва маданий ривожланиши.-Наманган: 1998.- Б.28.

³⁴ Зиёев Ҳ. Тарих – ўтмиш ва келajak кўзгуси.-Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2000.- Б.137.

yuz tutadi. Uzoq o'tmish tarixidan ma'lumki, bu sohada qanday oqibatlar olib kelinganlishni guvohi bulib turibmiz.

O'lkamizda temir yo'l qurilishi sanoat, savdo-sotiq va paxtachilikni yanada rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. 1908 yilda "Qo'qon -Namangan temir yo'l jamiyati" tuzildi. Namanganda ilgari temir yo'llarni davlat qurdirgan bo'lsa, endi temir yo'llar xususiy kapital kuchi bilan qurila boshladi.

4 million 584 ming so'm aktsiyali kapitalga ega bo'lgan bu jamiyatga Qo'qon-Namangan-Andijon orqali Jalolobodgacha temir yo'l shahobchasi qurishga ruxsat etildi. 1908 yildan boshlab qurila boshlangan Qo'qon-Namangan temir yo'li esa 1912 yilda to'la bitkazib ishga tushirildi.

Namanganda dastlabki paxta tozalash zavodi 1887 yilda qurildi. 1888 yilda uchta yana shunday zavod qurilib ishga tushirildi.

1892 yilga kelib paxta tozalash, oziq-ovqat va to'qimachilik sanoatiga doir 28 ta, 1918 yilda esa 44 ta korxonalar ishlab tur di. SHulardan 17 tasi paxta tozalash, 3 tasi yog'moy zavodi, 3 tasi pilla qurtiga, 1 tasi pivo pishirish, 3 tasi g'isht zavodi, 2 tasi bosmaxona va boshqa mayda korxonalar edi³⁵.

Rossiya sanoatida paxta tolasiga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi bu erlarda etishtiriladigan paxtaning sifatiga e'tiborni kuchaytirdi. SHu maqsadda o'lka erlarida paxtaning Amerika navlarini etishtirishni yo'lga qo'yish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib boruvchi stantsiyalar tashkil etildi. Hatto bu navlarni o'rganish uchun Amerikaga maxsus mutaxassislar ham yuboriladi. Mustamlaka yillarida bunday navlar o'lka paxtachiligida etti barobar ko'paydi. 1878 yil Namanganda Amerika paxta navi tajriba sifatida ekildi³⁶.

Xullas, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Namanganda boy tabiiy resurslar, qishloq xo'jalik xom ashyosi bo'lishiga qaramay, sanoat (fabrika-zavod, ishlab chiqarish) boshlang'ich bosqichda edi. XIX asrning 80 yillaridan boshlab dastlabki fabrika, zavod, ishlab chiqarish korxonalarini qurildi. Asosiy sanoat korxonalarini paxtani qayta ishlash zavodlaridan iborat edi. Paxta tozalash va yog' zavodlari temir yo'l Namanganga kelgandan so'ng qurildi. 1913 yilda Namanganda 39 ta sanoat korxonasi mavjud edi³⁷. SHunga qaramay, XX asr boshlarida Namangan Rossiyaning iqtisodiy, madaniy jihatdan qoloq hududlaridan bo'lib, asosiy sanoat mahsulotlari ip-gazlama, shoyi va jun gazlamalar, qishloq xo'jalik vositalari, poyabzal, xilma-xil metall buyumlar va boshqa tayyor mahsulotlar sotiladigan bozor, metropoliya mineral xom ashyo va qishloq xo'jalik mahsulotlari - paxta, ipak, quruq meva etkazib beradigan hududlaridan biri edi.

Namangan shahar xalq ta'limi tizimining rivojlanish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Namangandagi maktab va madrasalar ildizlari moziyning eng chuqur qatlamlariga kirib boradi. Namanganda XVII-XVIII asrlarga oid maktab, qorixona va madrasalar to'g'risidagi ma'lumotlar bugungi kunda O'ZR MDA ning Farg'ona viloyati boshqarmasi arxiv fondida "Namangan uezdi bo'yicha o'quv yurtlari to'g'risidagi 1887 va 1888 yillarga tegishli xabarnoma" nomli hujjatda saqlanmokda. CHodak qishlog'ida 1578 yilda bunyod etilgan 1 ta madrasa va Koson qishlog'ida Xapalak xo'ja mahallasida tashkil qilingan 1 ta qorixona bo'lganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Namangan shahrida 1683 yilda qurilgan Do'st Og'alik nomli madrasa faoliyat yuritgan. XVIII asrda Namangan bekligidagi 5 ta madrasa, qorixona va maktablar qurilib, faoliyat ko'rsatgan³⁸.

³⁵ Мирзаалиев Э.Ю., Бозорова М.Т. Наманганнинг XIX аср охири XX аср бошидаги социал-иқтисодий ва маданий ривожланиши.-Наманган: 1998.- Б.30.

³⁶ Зиёев Ҳ. Тарих – ўтмиш ва келajak кўзгуси.-Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2000.- Б.143.

³⁷ Мирзаалиев Э.Ю., Бозорова М.Т. Наманганнинг XIX аср охири XX аср бошидаги социал-иқтисодий ва маданий ривожланиши.-Наманган: 1998.- Б.31.

³⁸ Расулов Б. М. Ўзбекистондаги мусулмон мактаб ва мадрасалари тарихидан (XIX аср охири - XX асрнинг 20 йиллари) тарих фанлари номзоди илмий даражаси олиш учун ёзилган диссертация.-Андижон, 1996.-Б.61.

Biroq, arxiv ma'lumotlaridan ma'lum bo'lishicha, mustamlaka davrida qurilgan madaniyat obidalarini salomog'i unchalik katta emas.

Madrasalar qadimiy madaniyat, ilm-ma'rifat maskani sifatida muhim o'rin tutgan. Madrasalarda diniy ilm bilan birga dunyoviy fanlar, arab tili, fors tili, adabiyot, mantiq, falsafa hamda riyoziyot, xandasa, jug'rofiya, astronomiya, tib ilmi, kimyo kabi fanlar o'qitilishiga keng o'rin berilgan. SHuningdek, madrasalarning kamchilik tomonlari ham bo'lgan. Adabiyotlar, asosan, arab va fors tillarida yaratilgan bo'lib, talabalarning o'zlashtirishida qiyinchiliklar tug'dirgan.

Maktab - musulmonlarning masjid qoshidagi ibtidoiy xat-savod chiqarish va diniy udumlarni o'zlashtirish dargohi bo'lgan. Musulmon maktablarining juda ko'pchiligi shahar va qishloqlardagi har bir mahallada mavjud bo'lgan. Masjidlar yoki mozar yonidagi binolarda shu mahalla kattalarining tashabbusi bilan ochilgan. 1891 yili V.N.Nalivkin mahalliy maktablarni o'rganib, o'lka maktablari bosh inspektoriga ular haqida yuborgan "ma'lumot"da maktablarning ochilishi haqida quyidagicha yozadi: "... mahalla ahlida o'z maktablariga ega bo'lish hohishi tug'lsa, bu hakda masjid imomiga ma'lum qilishgan yoki hammalari kelishib, chetdan madrasani tugatgan yoki o'qiyotgan mulla taklif qilingan"³⁹. Masjid qoshidagi maktablarning ochilishi qanchalik oson bo'lsa, ularning yopilishi ham shunchalik tez ro'y berishi mumkin bo'lgan. 1875 yilda Namanganda 371 ta maktablarda 7121 nafar, 1898 yilda 400 ta maktabda 5501 nafar bola o'qigan. Ma'lumot-lar tahlil qilinadigan bo'lsa, 1875 yildan 1898 yilgacha maktablar soni 29 taga ko'payib, o'quvchilar soni 1620 nafarga kamayib ketgan. Namanganda maktablar bilan birga yana boshqa musulmon diniy maktablaridan tashqari qorixonalar ham bo'lgan. Qorixonada faqat Qur'onni yoddan o'qish o'rgatilgan. SHuning uchun ularda o'quvchilarning ko'pchilik qismini ko'zi ojiz kishilar tashkil etgan. Qorixonada o'qituvchi qori domla, unda o'quvchilarni esa qorilar deb atashgan. Qorilarga yakka-yakka ta'lim berilgan, buning uchun 3-4 yil vaqt sarflangan. 1875 yili Namangan uezdida 50 ta qorixonada 305 nafar qori o'qigan. Turkiston general-gubernatorligi bosh inspektorining ko'rsatmasiga binoan Farg'ona oblast' harbiy gubernatorining buyrug'i bilan 1878 yil 1 iyuldan boshlab viloyat territoriyasida 8 ta o'quv yurti ochildi. SHundan 1879 yilda Namanganda bitta o'g'il bolalar uchun ikki sinfli va bitta qizlar uchun ikki sinfli uchilife ochildi⁴⁰.

1908 yilda Namangan shahridagi maktablar soni 73 taga, bolalar soni 1109 nafarga etgan. Namangan uezdida 321 ta maktabda 4823 nafar bola, 101 otin oyi maktabida 1197 nafar bola, Namangan shahrida 32 ta otin oyi maktabida 215 nafari qiz o'qigan.

Namangan shahar xo'jalik boshqarmasi 1908 yil 23 dekabr' qarori bilan viloyat boshqaruvida Namangan bilim yurti ochishni so'raydi. Buning uchun 11 500 so'm mablag' ajratiladi. 1909 yilda 3 sinfli bilim yurti ochiladi. Unda 3 o'qituvchi ishlay boshlagan. 1910 yilda yana bir sinf qo'shildi. 1915 yilda bilim yurtida o'qish haqi 8 so'mdan 12 so'mga oshirildi⁴¹.

1914-1915 yilga kelib Namangan shahrida maktablar va ulardagi o'quvchilar soni quyidagicha bo'ldi: erkaklar maktabi 68 ta, o'quvchilar soni 1388 ta, madrasa 21 ta, o'quvchilar soni 1168 ta, qorixona 9 ta, o'quvchilari 92 ta, xotin-qizlar maktabi 29 ta, o'quvchilar soni 600 ta. YAngi usuldagi o'quv yurti 1 ta, o'quvchisi 122 ta. SHuningdek, yahudiylar maktabining 71 o'quvchisi bor edi⁴².

O'lkada mustamlakachilikni kuchaytirishga qaratilgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlar asta-sekin mahalliy aholining moddiy va ma'naviy qashshoqlanishiga, ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlarning keskinlanishiga olib kelib, chorizm mustamlakachiligiga qarshi qaratilgan milliy ozodlik harakatlarining kuchayishiga sabab bo'ldi.

³⁹ Ражапов В. Наманган шаҳар халқ таълими тизимининг ривожланиш тарихи.-Тошкент: Ноширлик ёғдуси, 2011.-Б.6.

⁴⁰ Қосимов Ў. Наманган тарихидан лавҳалар.-Тошкент: ФАН, 1990.-Б.2.

⁴¹ НВДА, 47-фонд, 1-рўйхат, 394-иш, 1-варақ.

⁴² НВДА.796-фонд, 1-рўйхат, 26-иш, 4-варақ.

Birinchi bobga xulosa qilib shuni aytish mumkinki, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Namangan uezdidagi ijtimoiy-siyosiy ahvol mustamlaka manfaatlarini o`zida namoyon etar edi. Qo`qon xonligining tugatilishi va Namangan uezdining tashkil topishi oxir oqibatda milliy davlatchilikning barbod bo`lishi, o`lkada mustamlaka tartibotlarining o`rnatilishiga olib keldi. Namangan uezdidagi ijtimoiy-siyosiy ahvolning tabiiy ravishda madaniy hayotga ta`sir etar edi. Vaqf mulklarining qisqarishi, madrasa ta`lim tizimining izdan chiqishi olib kelgan bo`lsa, iqtisodiy qashshoqlik esa madaniy taraqqiyot yo`lidagi g`ovlardan biriga aylandi.

II Bob. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Namangan uezdida madaniy hayotning o`ziga xos jihatlari

2.1. Namangan jadidlarining madaniy-ma`rifiy jabhadagi faoliyatlari.

Namangandagi jadidchilik harakati o`zining chuqur mahalliy ildizlariga ega. Turkiston xalqlarining ijtimoiy-siyosiy hayotda jahon xalqlaridan ortda qolayotganligini XIX asrning ikkinchi yarmida yashab o`tgan ilg`or fikrli ziyolilar o`z vaqtida anglab etgan edilar. Ular bu qoloqlik iskanjasidan qutilishning yagona yo`li deb ilm-ma`rifatni tanladilar.

Ilm taraqqiyotning negizi ekanligini anglab etgan ilg`or ziyolilar avvalo qoloqlikdan qutilishning asosiy sharti deb, ma`rifatni tanladilar. SHu maqsad yo`lida XIX asrning so`nggi choragida Namanganda ham dastlabki yangi usul maktablari ochildi.

Namangan jadidchilik harakatining atoqli namoyandalardan Ishoqxon Ibrat Qo`qonda madrasani tamomlagach, 1886 yilda To`raqo`rg`onda maktab ochadi lekin u tez orada yopiladi⁴³. SHundan so`ng Ibrat 1887 yildan 1895 yilgacha Osiyo va Evropaning ko`plab mamlakatlarida bo`ladi. O`ndan ortiq chet tillarini o`rganadi, G`arb ilm-fani va texnikasi yutuqlari bilan tanishadi⁴⁴. Safardan qaytgach esa o`z yurti taraqqiyoti uchun izchil amaliyotga kirishib, jadidchilik harakatining faollaridan biriga aylanadi.

Jadidlarning harakati tufayli XX asr boshlariga kelib Namanganda o`nlab yangi usul maktablari faoliyat ko`rsatmoqda edi. Ayniqsa, XX asr boshlaridan boshlangan ijtimoiy siyosiy harakatlardagi jonlanishlar Namanganlik jadidlar faolligining oshuviga katta turtki bo`ldi va jadidchilik harakati ushbu jarayonlar ta`sirida siyosiy tus ola boshladi.

Taraqqiyparvarlar omma orasida ma`rifatni keng yoyish, millatning siyosiy ongini yuksaltirish borasida ommaviy nashrlar, bosmaxonalar ochildilar, teatr tomosholari tashkil etdilar. Bu borada Ishoqxon Ibrat, Muhammadsharif So`fizoda, Dadamirza qori, Zayniddin qori, Lutfulla Olimiy, Mulla Izzatulla qori, Mulla Rustam, Murodov Mamadjon, Naimjon afandi, Obidjon domla, Ortiq domla, Sayyid Nosirxonto`ra, Toshxo`ja eshon Ashurhoji o`g`li boshqalarning xizmatlari beqiyos bo`ldi.

Farg`ona vodiysidagi dastlabki taraqqiyparvar jamiyatlar, tadqiq etilgan manbalar bergan ma`lumotlarga ko`ra, 1905-1907 yilgi birinchi rus inqilobidan so`ng, eron va Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy harakatlar ta`sirida vujudga kelgan. Osiyo mamlakatlaridagi inqilobiy harakatlar, musulmon dunyosidagi, xususan, Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy va diniy fikrlarning taraqqiyotida muhim bosqich bo`lib xizmat qildi.

1904-1905 yillardagi Rus-yapon urushida Rossiyaning mag`lubiyati imperiyadagi barcha ezilgan xalqlar oldida podsho mustabid tuzumi obro`sini keskin tushishiga olib keldi. Bu esa siyosiy fikrlar rivojiga turtki berib, milliy ozodlikka erishish orzularini ushalishiga ishonch uyg`otdi. SHarqdagi inqiloblar va o`lkaga u erlardan kirib kelgan turli xil g`oyaviy oqimlar bu erlardagi muxolif kuchlarning birlashishi, milliy-siyosiy tashkilotlar holiga kelishi va rivojlanishi uchun muhim omil bo`lib xizmat qildi.

Turkistonning uyg`onishi podsho hukumatini, rasmiy doiralarni befarq qoldirmadi. Uezdda tuzilgan har qanday jamiyat va tashkilotlar mustabid hukumat ma`muriyati tomonidan qo`yilgan ayg`oqchilarning kuzatuv ostida bo`lgan.

Birinchi jahon urushi yillarida o`lka ziyolilari ijtimoiy-siyosiy hayotga faol aralasha boshladilar. Xuddi shu davrda Turkistonda ham milliy nashrlar va jamiyatlar soni ortib borib, jadidlar tomonidan qoloqlikdan qutulish va milliy taraqqiyot sari dadil qadamlar tashlana boshladi.

SHuni ham ta`kidlab o`tish kerakki, ma`rifatni keng yoyish uchun 1908 yili Namanganda Ishoqxon Ibrat tomonidan «Matbaai Ishoqiya» bosmaxonasi ochildi⁴⁵.

⁴³ Носиров О. Маъмуров М. Ўзбек адабиётчининг муҳим саналари. - Наманган: Нам ДУ, 1993. -Б. 124.

⁴⁴ Воҳидова К. Исҳоқхон Ибрат //Фан ва Турмуш.- 1995.-№4. -Б.26.

⁴⁵ Долимов У. Исҳоқхон Ибрат.-Тошкент: Шарқ, 1990.-Б.45.

XX asr boshlarida Namangan jadidlari orasidan Turkiston jadidchilik harakatining rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shgan ko'plab taniqli namoyandalari etishib chiqdilar. Ular Turkiston jadidchilik harakati tarixida o'zlarining munosib o'rinlariga egadirlar. Masalan, Dadamirza Qori esa yangi usul maktablari uchun darsliklar yozgan taniqli muallim, I. Ibrat tilshunos olim, tarixchi, So'fizoda mashhur jadid adib va shoiri, atoqli taraqqiyparvar publitsist edi. Jadid namoyandalari turli sohalarda millat ravnaqi uchun faoliyat ko'rsatdilar.

XX asrning boshlarida faoliyat ko'rsatgan Namanganning mashhur jadidlaridan biri Dadamirza qoridir. Dadamirza qori hayoti haqidagi ma'lumotlar hozircha juda kam aniqlangan. Ammo shu narsa yaxshi ma'lumki, o'sha davrda Namanganda Ishoqxon Ibrat, Mamajon Murodov, Xusayn Makaev, So'fizoda, Obidjon domla, Zayniddin qori va boshqa taraqqiyparvarlar tomonidan ochilgan yangi usul maktablari orasida Dadamirza qorining ham maktabi alohida ahamiyatga ega.

Namanganda dastlabki jadid maktabi Ishoqxon Ibrat tomonidan ochildi. 1910 yili taniqli ma'rifatparvar Husayn Makaev ham Namangan shahrida yangi usul maktabini ochadi. Astasekin bunday maktablar soni orta borib, 1913 yilga kelib Namangan shahrining o'zida ularni soni 4 taga etadi⁴⁶. SHulardan birining asoschisi Dadamirza qori edi. O'sha davrda shaharning asosiy ko'chalaridan biri Qo'qon ko'chasi bo'lib, ko'chadagi «Sirli masjid» deb nomlanuvchi masjid hovlisida Dadamirza qori tomonidan ikki sinfli yangi usul maktabi tashkil etildi. Maktab shaharning eng gavjum markaziy qismida joylashgan edi. Maktabda 3 kishidan iborat muallimlar jamoasi o'quvchilarga turli Fanlardan saboq berganlar. Dadamirza qori ona tili va geografiyadan, Ortiq ismli o'qituvchi hisobdan, Mamajon Murodov esa boshqa fanlardan dars berganlar. Uning maktabida tabiiy fanlarga alohida e'tibor berilgan. Masalan, geografiya fani haftada ikki marta bo'lgan.

YAngi ochilgan bunday maktablar va ularning muallimlari politsiya ma'murlarining doimiy nazorati ostida bo'lganlar. Bunday kuzatuvlardan Dadamirza qori va uning maktabi ham chetda qolmadi. Mirshablar uning maktabini tez-tez tintuv qilib turishar, geografiyaga doir o'quv xaritalarini, ba'zan esa, o'qituvchilarning o'zlarini ham mahkamaga olib ketishar edi⁴⁷.

1914 yilning 14 mayida Dadamirza qorining yangi usul maktabida omma ko'z oldida o'quvchilardan ochiq imtihon olinadi. SHogirdlar barcha fanlardan imtihonlarni muvaffaqiyat bilan topshiradilar. Bu esa uning maktabi obro'sini xalq orasida yanada oshishiga sabab bo'ladi⁴⁸.

Dadamirza qori qalami o'tkir, hozirjavob qalamkash ham edi. U dolzarb mavzularni o'z ichiga olgan maqolalarini «Sadoyi Farg'ona» gazetasi sonlarida chop ettirib turdi. Uning «Miftoh ul-avval» nomli darsligi ham bo'lib, yangi usul maktablarida undan foydalanilgan⁴⁹.

«SHo'ro» jurnali o'zining 1912 yil № 23 sonida, boshlang'ich maktablarning maqsad va vazifalari, ulardagi muallimlar va darsliklar haqida bir necha savollar bilan o'z mushtariylariga murojaat qiladi. Ushbu savollarga Dadamirza qori ham javob yo'llab, yangi usul maktablari mohiyatini ochib bergan holda, maorif islohiga oid o'zining qimmatli fikrlarini beradi: «...boshlang'ich maktabning maqsadi-insonni Qur'onda tasvirlangan inson kabi tarbiyalash va natijada dinimizning saqlanib qolinishi hamda millatimizning mavjudligini ta'minlaydigan asoslarini yaratmoqdir...»⁵⁰. SHuningdek, u darsliklar masalasida ham to'xtalib, bu borada yagona tartib joriy qilish fikrini olg'a suradi.

Dadamirza qori maktab va ta'lim islohi haqidagi o'z fikrlarini «Sadoyi Farg'ona» gazetasidagi maqolalarining birida davom ettirib, o'z qarashlarini atroflicha bayon etadi. U o'zining maqolasida: « bizga nima kerakq», - deb savol berilsa, kishilar juda ko'p hisobsiz

⁴⁶ Наманган вилоят Давлат Архиви. 796-фонд, 1-рўйхат, 26-иш. Б.3.

⁴⁷ Наманган вилоят Давлат Архиви. 796-фонд, 1-рўйхат, 26-иш. Б.4.

⁴⁸ Қозоқов Т. Маърифат жонкуяри //Фидокор.- 2001.- 7 июн.

⁴⁹ Наманган вилоят Давлат Архиви. 796-фонд, 1-рўйхат, 26-иш. Б.5.

⁵⁰ Қозоқов Т. Маърифат жонкуяри //Фидокор.- 2001.- 7 июн.

keraklarni aytadilar, har qancha aytsalar haqlidirlar, ammo mening fikrimcha: «...hamma keraklardin ortuqroq kerak maktabdur...»,- deydi⁵¹.

U bu maqolasida o'lkadagi mavjud o'quv tizimi, maktablarning ahvoli, aholining ilmga munosabati, ilmsizlikning taraqqiyotga ko'rsatayotgan salbiy ta'sirini ko'rsatib o'tgan holda, maktablar islohi davr talabi ekanligini isbotlab beradi: «...SHuning uchun bo'lsa kerak, bir maktab bolamizni o'ndan biri ahli savod bo'lib qolmish, to'qqiz hissasi avom qolmoqda. Ilm degan aziz va sharofatlik narsadan mahrum qolmoqda va jaholat qurboni bo'lub islom kishisini boshqalarga mashara qildurmakdadur...»⁵². SHu bois, Dadamirza qori islohotni maktabdan boshlashni taklif qiladi. Uning fikricha, insonga ilmga, san'atga va adabiyotga intilish uchun qobiliyat berilgan. U: «Ilm-ma'rifat ma'lum bir kishilar uchungina kerak, barcha ommaning ilmli bo'lishi shart emas»,-deguvchilarning fikriga keskin qarshi chiqadi.

Dadamirza qori nafaqat maktab-maorif, balki maishiy turmush masalasiga ham alohida e'tibor berar edi. Farg'ona jadidlarining nashr afkori bo'lmish «Sadoyi Farg'ona»da uning «Araqqa tutilmish oqchalar» nomli maqolasi e'lon qilingan. Ichkilikni kishilarning iqtisodiy ahvoli, jamiyatning ma'naviy muhitiga salbiy ta'sirini yaxshi tushunib etgan holda, Dadamirza qori ham ushbu mavzuni dolzarb sanab, o'z maqolasida bu xususida alohida to'xtalib o'tadi. U yozadiki, boshqa millat vakillari kecha-kunduz tinmay o'z millatlari istiqboli yo'lida harakat qilganlari holda, bizning yigitlarimiz «...minglab choyxona va foydasiz o'rinlarda aziz umrlarin chiritib...» millat yo'lida dadil sayi-harakat qilmaganliklaridan: «...Hanuz biz maktab mas'alasin hal qila olmaymiz...»⁵³.

Dadamirza qori to'ylardagi ortiqcha isroflarni ham ushbu maqolasida qattiq tanqid qiladi. Evropa mollariga bo'lgan talab bois, milliy hunarmandchilikning tanazzulga yuz tutayotganidan qattiq havotirda ekanligini bayon qiladi. U kishilarni ogohlikka, har bir imkoniyatdan ma'rifat yo'lida foydalanishga da'vat etadi: «..Agar shunday g'aflatda bir muncha vaqt qolsak boshimizga qanday qora kunlar kelg'usidur»⁵⁴.

Namanganning peshqadam taraqqiyparvar ulamolaridan biri Sayyid Nosirxonto'ra Kamolxonto'raevdir. U 1871 yil Namanganda ziyoli oilada tavallud topadi. Uning otasi Sayyid G'ozixon Namanganning eng ko'zga ko'ringan mudarrislaridan biri bo'lib, shariat qozisi lavozimida ishlardi. Namanganda G'ozixonning o'z bosmaxonasi bo'lib, unda islom diniga oid bo'lgan ilmiy, falsafiy asarlarni chop ettiradi.

Sayyid Nosirxonto'raning ilg'or fikrli kishi bo'lib etishishida oiladagi ma'naviy muhitning ta'siri katta bo'ldi. Nosirxonto'ra madrasadagi o'qishini tamomlagach, chet mamlakatlarga tahsil olish uchun chiqib ketadi. Bag'dod, Dehli, Hijoz va Kobul shaharlarida tahsil ko'rди, islom asoslarini yanada chuqurroq o'rganib, 1912 yil yana o'z Vataniga qaytib keladi.

U chet mamlakatlarda yashagan vaqtida mamlakatning taraqqiyoti uchun qiziqqa boshladi. Tehron va Hijoz kabi shaharlarda sodir bo'layotgan keskin siyosiy o'zgarishlar, Turkiyadagi YOsh turklar harakatidan qattiq ta'sirlanadi. O'sha paytlardayoq uning qalbidan Vatani Turkistonning ravnaqi haqidagi fikrlar muhim o'rin olgan edi. Namanganga qaytgach, shahar qozisi lavozimida ishladi. Otasining bosmaxonasi orqali Farg'ona jadidlarining islohotchilik g'oyalarini tarqatishda yordam berdi. 1916 yil O'zgan, Kosonsoy va Namanganda bo'lib o'tgan xalq qo'zg'olonlarini ham qo'llab quvvatladi.

1917 yil fevral inqilobidan keyin Nosirxonto'ra ijtimoiy-siyosiy faoliyatida keskin o'zgarishlar boshlandi. Turkistondagi demokratik jarayonlarda uning alohida o'z o'rni bor. U 1917 yil 10-aprelda bo'lib o'tgan Turkiston O'lkasi Ijroiya Komitetlari delegatlarining s'ezdida ishtirok etib, aholining barcha tabaqalarini, barcha millatlarni qo'lga kiritilgan ozodlikni asrab

⁵¹ Вохидова К. Фарғонада жадид мактаблари //Фан ва Турмуш.-2000.-№5.-Б.23-24.

⁵² Қозоқов Т. Жадидчилик ва миллий мафкура /Тўплам. Жадидчилик ва миллий истиқлол тантанаси.-Тошкент, 2002.-Б.169-173.

⁵³ Қозоқов Т. Тараққиёт кушандаси //Фидокор.- 1999.- 15 июл.

⁵⁴ Ўша жойда.

qolishga, hurriyat bergan imkoniyatlardan unumli foydalanishga da'vat etadi⁵⁵. Turkiston Muxtoriyatining asosiy tashkilotchilaridan biri aynan Nosirxonto`ra edi. Atoqli jadid Ashurali Zohiriyning bergan ma'lumotlariga ko`ra, «...agar Nosirxonto`ra Turkiston musulmonlarining IV-favqulodda qurultoyini chaqirish ustinda jon kuydirmaganda edi, balkim bu qurultoy chaqirilmay qolishi mumkin edi...»⁵⁶.

U Qo`qonda chaqirilgan o`lka musulmonlarining IV-favqulodda s`ezdida saylangan Milliy Majlisga a`zo va hukumat maorif noziri lavozimlariga saylanadi⁵⁷.

Ushbu lavozimda ishlash jarayonida aholi orasida madaniy-ma`rifiy ishlarni yaxshi yo`lga qo`yishga imkon qadar harakat qildi. Muxtoriyat ag`darilgach, Nosirxonto`ra o`zining milliy-ozodlik g`oyasidan voz kechmagan holda yashirin faoliyat ko`rsatishga o`tdi.

Milliy ozodlik uchun jangovar kurash olib borgan Farg`ona istiqlolchilarining g`oyaviy rahmosiga aylandi. U mahfiy ravishda Omon Polvon, Muhiyiddinbek, Jonibek qozi va Rahmonqul qo`rboshilarning faoliyatlarini markazlashtirish harakatida bo`ldi.

Nosirxonto`ra «Milliy Ittihad» tashkilotining Namangan filialiga a`zo bo`lib, bu tashkilotning yacheykasini Kosonsoy shahrida tashkil qiladi. SHermuhammadbek Nosirxonto`rani o`ziga pir deb e`lon qilgan va ushbu markazdan doimo Farg`onadagi sovet qo`shinlarining ahvoli to`g`risida ma'lumotlar olib turgan⁵⁸.

Lekin uning bu faoliyati uzoqqa cho`zilmadi. 1919 yil bol'sheviklar uni Turkiston Muxtoriyatining Maorif Noziri bo`lganligi uchun qamoqqa oldilar. 1924 yil qamoqdan qaytib kelgach, ko`p o`tmay uni Sovetlarga qarshi faoliyati uchun yana qamoqqa oladilar va Orenburgga 5 yilga surgun qildilar⁵⁹.

1938 yil iyul oyining boshlarida uni Sovetlarga qarshi faoliyati uchun yana hibsga oladilar. SHu yilning 3-sentyabrida maorifchi, diniy olim, tarixchi, siyosatchi, millatparvar siymo Sayyid Nosirxonto`ra Andijon turmasida vafot etdi⁶⁰.

Sayyid Nosirxonto`ra kabi barcha Farg`onalik jadid namoyandalari millatni taraqqiyot sari boshlash uchun turli yo`nalishlarda faol harakat qildilar. Xalqni zulmatdan qutqarishning turli yo`llarini izladilar. Bu borada ular maktab-maorif, teatr, adabiyot, matbuotdan keng foydalanishga, siyosiy tashkilotlar tuzib, o`lkaning siyosiy hayotida faol ishtirok etishga urindilar.

Farg`ona jadidlari ham o`lkadagi boshqa taraqqiyparvarlar qatori o`zlarining dastlabki faoliyatlarini ma`rifatparvarlikdan boshlagan edilar. Vatanni ozodlikka, milliy mustaqillikka etaklashdek muqaddas g`oya eng ilg`or qarashli jadid ziyolilarning fikrida bo`lgani holda, mavjud sharoitda uni amalga oshirish mushkul edi. Unga faqat tinimsiz ma`rifiy-siyosiy faoliyat orqaligina erishish mumkin edi. Jadidlar yurt istiqlolini va taraqqiyotini zamonaviy bilimlar bilan qurollangan etuk mutaxassislarisiz tasavvur eta olmaganlar. SHu maqsad yo`lida o`tgan asr oxirlarida jadidlar butun Turkistonda, xususan Farg`ona vodiysida ham yangi usul maktablari ochish zarurligini angladilar va ularni tashkil etish uchun harakat boshladilar.

⁵⁵ Қозоқов Т. Туркистон Мухторияти ва Фарғона жадидлари /Тўплам. Жадидчилик ва миллий истиқлол тантанаси.-Тошкент, 2002.-Б.188-191.

⁵⁶ Эрктурк. М.Х. Саййид Носирхонтўра //Турон тарихи.-1994.-№3.-Б. 21.

⁵⁷ Агзамходжаев С.С. Из истории борьбы за автономию Туркестана. Туркистон мустақиллиги ва бирлиги учун кураш саҳифаларидан.-Тошкент: Фан, 1996.-С.32.

⁵⁸ Ражабов Қ. Жадидлар-истиқлолчилик ҳаракатининг ғоявий раҳнамолари. Ўзбекистон тарихи: янги нигоҳ. Жадидлар ҳаракатидан миллий мустақилликка қадар.-Тошкент: Элдинур, 1998.-Б.13.

⁵⁹ Ўша манба. Б.14.

⁶⁰ Эрктурк. М.Х. Саййид Носирхонтўра //Турон тарихи.-1994.-№3.-Б.22.

SHunday maktablarning tashkil topishiga bir tomondan chor ma'murlari, ikkinchi tomondan ijtimoiy voqelikka o'zining tor dunyoqarashi nuqtai nazardan baho beruvchi kishilar to'sqinlik qildilar.

Turkiston xalqlari turmushidagi har bir yangilik mustamlakachi ma'murlar nazaridan chetda qolmagan, albatta. XX asr bo'sag'asida o'lkamizda yangi usul maktablarining paydo bo'lishi ham ularni g'oyatda tashvishga sola boshladi.

O'sha davrda chop etilgan rus tilidagi gazeta va jurnallarda mahalliy xalqlarning maorif tizimi, yangi va eski maktablar masalalarini yoritishga keng o'rin berilgan. Turkiston bosib olingach, bu erda mustamlakachilar o'zlarining rus-tuzem maktablarini ocha boshladilar. Xalq maorifi sohasida hukumat rus-tuzem maktablari bilan yonma-yon, yangi usul maktablarining paydo bo'lishi sira ko'z yumib bo'lmaydigan hol ekanligi, bu maktablar zamon talablari asosida kelib chiqqanligini «Turkestanskije vedomosti» gazetasining 1909 yil 1-sonida ta'kidlab o'tiladi⁶¹.

Eski usul maktablari bolalarga asosan diniy tarbiya berish bilan cheklanganligi, zamonaviy ilm-fanlarning o'qitilishi bu maktablar uchun yot hodisa ekanligini va shu sababli ham bu maktablar mustamlakachilar uchun unchalik xavf tug'dirmasligini chor ma'murlari yaxshi tushunib etgan holda, yangi usul maktablariga jiddiy e'tibor qarata boshladilar. SHu sababli ham Turkistonda maktab ishlarini asosiy vazifalardan biri bo'lishi kerak deb bildilar: «..Dars berish uslublariga ko'ra, dasturlar bo'yicha va butun tuzilishi bo'yicha bu yangi maktablar hayot talablariga nisbatan javob beradi...Bu yangi usul maktablari asosiy e'tiborga loyiqdir...Ular xalq turmushiga kira borib, erlilarni qo'zg'oltiradi va ularni qoloqlikdan chiqaradi»⁶².

Ayrim adabiyotlarda Farg'ona viloyatidagi dastlabki yangi usul maktabi sifatida Ishoqxon Junaydulloxonxo'ja o'g'li (Ibrat)ning maktabi eslatiladi⁶³. Ishoqxon Ibrat (1862-1937) 1878-1886 yillari Qo'qonning Muhammad Siddiq Tunqator madrasasida ta'lim oladi. O'sha kezlari u Bog'chasaroyda nashr etiladigan «Tarjumon» gazetasi sonlari bilan ham muntazam tanishib turgan. Ushbu nashr orqali u yangi usul maktabining afzalliklari, ta'lim usullari, darsxonalarining tuzilishi va darsliklari haqida ma'lumotlar olib borgan. Madrasani tamomlagach, 1886 yil To'raqo'rg'onga qaytadi va tovush usuliga asoslangan yangi maktab ochadi. Lekin maktab tez orada yopib qo'yiladi. U 1907 yilga kelib, ikkinchi bor maktab ochadi. Uning maktabida Evropa tillaridan ham darslar o'tilgan⁶⁴.

YAngi usuldagi maktab xonalarining ichki tuzilishi, eski maktablardan parta, yozuv taxtasi, geografik xarita va o'qituvchi uchun stol-stulning borligi bilan ajralib turgan. Maktablarda bolalar 2-3 yil o'qishni davom ettirganlar. Usuli savtiya maktablari eski usul maktablaridan ta'limning sifati bilan ham farq qilgan. Bu e'tiroflar o'sha davr matbuotida ham o'z aksini topgan. Masalan, Andijondagi Azim Qodirov maktabi 3 sinfli bo'lib, 1 chi sinfda bolalarga o'qish va yozish, 2 chi sinfda tajvid, hisob, 3 chi sinfda esa ibodati islomiya, sarfi turkiy o'rgatilgan. 1900 yil may oyida Otabek qozi ishtirokida ushbu maktab o'quvchilaridan imtihon olingan. o'quvchilar imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirganlar. Imtihon ishtirokchilaridan Tojiddinbek Otabekov yozganidek: «...Eski zamon maktablari birlan usuli jadid maktabini farqi nihoyat darajada ma'lum va ravshan bo'ldi. Usuli jadid maktabi birlan eski

⁶¹ «Тарих ва тақдир: Фарғона водийси тарихини тадқиқ этиш муаммолари» мавзуидаги республика илмий-амалий анжумани материаллари маърузалар тыплами. I-китоб.- Наманган: 2000.- Б. 73-75. 97.

⁶² Жаҳидчилик ва миллий истиқлол тантанаси.-Тошкент, 2002.-Б.169-173.

⁶³ Долимов У. Исҳоқхон Ибрат.-Тошкент: Шарқ, 1994.-Б.11; О. Носиров, М. Маъмуров. Ўзбек адабиётининг муҳим саналари.-Наманган: Наманган Давлат Университети, 1993.-Б.124; Педагогика тарихи.-Тошкент: Ўқитувчи, 1996.-Б.280.

⁶⁴ Носиров О., Маъмуров М. Ўзбек адабиётининг муҳим саналари.- Наманган: Наманган Давлат Университети, 1993.-Б. 124.

zamon maktablarini bir joyga bormoq uchun otash aroba birlan piyoda odimga misol qilsak ham to`g`ridur...»⁶⁵.

Jadid maktablarining soni ortib borgan sari, ulardagi ta`lim tizimi ham takomillashib borgan. Imtihonlar keng xalq ommasini ko`z o`ngida, qishloq yoki shaharlarning ilg`or ziyolilari davrasida «Imtihon majlisi» nomi bilan o`tkazilgan. Bunday holatlarda yangi usul maktablari o`zining afzallik tomonlarini to`liq namoyish eta olgan. Aksariyat omma imtihondan mamnun bo`lgan holda tarqalganlar.

CHor ma`murlari yangi usul maktablaridagi darsliklar, ularning siyosiy-mafkuraviy yo`naltirilganligiga ham e`tiborni qaratib borganlar. O`quv inspeksiyasi tomonidan birinchi bor o`quv yurtlari tekshirilganda, o`quvchilar podshohni duo qilishni va uning oila a`zolarini nomlarini bilmaganlar. Lekin ikkinchi va uchinchi bor tekshiruvdan so`ng chor ma`muriyati talabi bilan yuqoridagi «xatolar» tuzatilgan⁶⁶.

Usuli savtiya maktablari sonining ortib borishi ularni darslik va boshqa o`quv qo`llanmalari bilan ta`minlash muammosini keltirib chiqardi. Bu vazifalarni ham yangi maktab muallimlari o`z zimmalariga oldilar. Namangan taraqqiyparvarlaridan Dadamirza qori ham «Miftah ul-avval» deb nomlanuvchi darslik yozgan edi⁶⁷.

YAngi usul maktablaridagi o`qituvchilarning ko`pchiligi madrasalarda tahsil olgan bo`lib, ba`zilari esa xuddi shunday maktablarni tamomlagan kishilar edilar. Darslar o`quv jadvali asosida, tsenzura ko`rigidan o`tgan darsliklar bo`yicha olib borilgan. O`quvchilar soni 50 tadan 145 tagacha etgan. Barcha maktablarda har oyiga o`qish uchun 50 tiyindan 1 so`m 50 tiyingacha haq olingan. Kambag`al oilalarning bolalari esa ba`zan to`lovdan ozod etilganlar.

YAngi usul maktablarida tabiiy fanlarning o`qitilishi chor ma`murlarini g`oyat tashvishga soldi. 1913 yilgacha bu maktablarda tabiiy fanlar o`qitilmagan bo`lib, uni o`qitish inspeksiyaning ruxsatisiz amalga oshirila boshlagan. SHu sababli o`quv inspeksiyasi tomonidan tabiiy fanlar muallimlaridan bu fanlarni o`qitish uchun maxsus ruxsat olish talab qilingan yoki ularga bu fanlar bo`yicha dars berishni ta`qiqlash masalasiga e`tibor qaratilgan⁶⁸. Bu vaqtga kelib yangi usul maktablari o`zining keng ko`lamliligi, o`qitish sifati bilan eski usul maktablaridan ustun bo`lib, mahalliy aholi ishonchini qozongan va hukumat rus-tuzem maktablariga nisbatan erli xalq hayotiga tezroq kira boshlagan edi.

Imperiya manfaatlarini ko`zlab, o`lkada rus va mahalliy xalq bolalari uchun tashkil etilgan rus-tuzem maktablari zamirida bosqinchilarning g`arazli maqsadlari yotar edi. O`lkadagi dastlabki rus-tuzem maktablari «...Ulkan ruslashtirish rejasini amalga oshirishda maktab katta ahamiyat kasb etishi lozim» degan nuqtai nazar bilan ish tutuvchi general-gubernator Rozenbax⁶⁹ davrida ochildi. Ilg`or ziyolilarimiz o`sha davridayoq bu makkorona siyosatni to`g`ri anglab etgan edilar. Bunday maktablarni Ismoilbek Gasprali ham o`z vaqtida tanqid qilgan bo`lsa, M. Behbudiy: «...Russkiy-tuzemniy maktablarig`a o`qig`onlar ziyoli tugul, hiyoli hisoblanmaydurlar. Ular faqat ruscha chalasavod kishilardir»,- degan edi.

Musulmon o`quv yurtlariga qarama-qarshi qo`yilgan rus-tuzem maktablari aholini ozchilik qismi orasida biroz e`tibor qozongan bo`lishiga qaramay, bu maktablar hech qachon ommaviy bo`la olmasligini chor ma`murlari yaxshi anglab etgan edilar. Maorifchi F. Egorovning ta`biricha, faqat milliy maktablarga ommaviy bo`lishi mumkin, rus-tuzem maktablari esa milliy bo`lmay, aksincha, sun`iy o`ylab topilgandir⁷⁰.

⁶⁵ Қозоқов Т. Фарғонада жадид мактаблари //Фан ва турмуш.- 1998.- № 5.- Б. 8.-9.

⁶⁶ Фарғона водийсида жадидчилик ҳаракати /«Тарих ва тақдир: Фарғона водийси тарихини тадқиқ этиш муаммолари» мавзуидаги республика илмий-амалий анжумани материаллари маърузалар тўплами. I-китоб.- Наманган: 2000.- Б. 73-75.

⁶⁷ Наманган вилоят давлат архиви. 796-фонд, 1- рўйхат, 26-иш, Б. 5.

⁶⁸ Қозоқов Т. «Муфтаҳ ул-аввал»нинг муаллифи //Мураббий.-2001.-1-15 нояб.

⁶⁹ Ризаев Ш. Жадид драмаси.-Тошкент: Шарк, 1997.-Б.38.

⁷⁰ Жадидчилик ва миллий мафкура /Тўплам. Жадидчилик ва миллий истиқлол тантанаси.- Тошкент, 2002.-Б.169-173.

Farg'ona taraqqiyparvarlari maorif sohasida asosiy e'tiborni boshlang'ich ta'lim islohiga qaratdilar va alalxusus ularning ma'rifatparvarlik harakatlari zoe ketmadi. Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablarida ta'lim olgan o'quvchilardan keyinchalik ilm-fan, texnika, adabiyot va ijtimoiy hayotning turli jabhalarida nom taratgan arboblal etishib chiqdilar.

Jadidlar ma'rifatchilik faoliyatining yana muhim bir tarmog'i - teatr san'ati edi. XX asrning 10-yillari Turkiston madaniyati tarixiga yangi o'zbek milliy teatrining ham vujudga kelish davri bo'lib kiradi. Millatni ma'rifat nuri bilan uyg'otib, ozodlik va taraqqiyot tantanasini orzulagan jadid ziyolilari, teatrni o'z maqsadlari yo'lidagi kuchli omillardan biri deb tushundilar. Millatning najotini ma'rifatda ko'rgan jadid taraqqiyparvarlari o'z qarashlarining keng miqyos kasb etishida teatrning benazir ahamiyatini tobora chuqurroq his etib bordilar. Qolaversa, spektakl namoyishlaridan tushadigan mablag' joylarda moddiy qiyinchilikdan qiynalib va yopilib qolayotgan «usuli jadid» maktablarini kerakli o'quv anjomlari bilan ta'minlash uchun ham zarur edi.

Joylardagi sahna ishlarining eng oddiy tafsilotlaridan tortib to tashkiliy, ijodiy muammolarigacha gazetalar sahifalarida yoritib borildi.

Turkiston teatr san'atining to'ng'ich sahna asari Mahmudxo'ja Behbudiyning «Padarkush» dramasi edi. Bu asar Samarqand, Toshkent va boshqa shaharlarda ijro etilgach, 1914 yilning fevral oyi oxirlarida muallif boshliq samarqandlik havaskorlar va mahalliy yoshlar hamkorligida vodiya ham sahnaga qo'yiladi.

Ozarbayjonlik aktyor va rejissyor Aliasqar Asqarov boshchiligida 1914 yilning 7 iyulida Namangan shahri yoshlari ijrosi bilan teatr o'ynaldi. Bu haqida «Sadoyi Turkiston» gazetasida ma'lum qilinishicha, sahna ko'rinishi nihoyatda ta'sirli chiqqan, hatto undan ruhlangan tomoshabinlar teatrdan so'ng ijodiy jamoaga moddiy yordam ko'rsatganlar⁷¹.

Ma'rifatparvarlikning bu sohasi vodiya keng quloch yoza boshladi. Farg'ona vodiysining ko'pgina shaharlarida jadidlar tashabbusi bilan mahalliy havaskor yoshlar ijrosida teatr tomoshalari qo'yiladi. Jumladan, «Sadoyi Farg'ona» gazetasida xabar berilishicha, 1915 yil 27 aprel kuni Toshxo'ja eshon Ashurhoji o'g'li tashkilotchiligida Namangan shahri mahalliy yoshlari ijrosida teatr tomoshalari ko'rsatilgan. Sahnada ijrochilar o'z rollarini mahorat bilan ijro etib, tomosha so'nggida esa yoshlar milliy ruhdagi she'rlarni jo'r bo'lib aytganlar⁷².

Taraqqiyparvarlar xalq ommasini milliy urf-odatlarini asrab-avaylashga, ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirishga chorladilar, hashamdor to'ylar, serharajat va sermashaqqat azadorlik marosimlari, to'y va azalarni riyokorlik, dabdabozlik bilan o'tkazishga jiddiy ravishda qarshi chiqdilar.

Kuz kelib dehqonlar hosilni yig'ishtirib olgach, dabdabalar bilan boshlanadigan to'y marosimlari, ulardagi uloq o'yinlari, isrofgarchiliklar, to'y qiluvchilarning chor-nochor holda bo'lsa ham tomoshalar berishi qattiq tanqid ostiga olinadi.

Farg'ona jadidlaridan Ishoqxon Junaydullaxonxo'ja o'g'li Ibrat o'zining maqolalarida to'ylardagi isrofgarchiliklar, ortiqcha sarf-surflar, yoshlarning ilm olishdan ko'ra ko'pkari, ya'ni uloq chopishga bo'lgan ishqibozliklari haqida o'z mulohazalarini bildiradi. U o'zining «Turkiston viloyatining gazetasi»dagi maqolalarining birida bu xususidagi fikrlarini quyidagicha bayon qiladi: «...Hali ham biz qadimgi, eski aqidamizda ma'lumlarki, siqilib o'z dinimizga harakat qilmay, aqcha topsak xoyu-havas ovloq to'ylarga o'n ming so'm behuda isrof uchun. qaysi ulamo bularga fatvo bergan halol deb. Halol desa bundan zarur halollar bor, ular qolibdur. Hech kimda xalqqa nasihat yo'q, bo'lsa ham quloqqa olmaydilar. Yigitlar esa kuvkari ila yuradurlar...»⁷³.

Bu mavzudagi fikrlarini rivojlantirib, xalqni har-xil illatlardan saqlovchi kuch-ilm olish ekanligini ko'rsatadi. U shunday deb yozadi: «...Bu ahvoli ba'dlarni, bu maraz dardni dorusi

⁷¹ Жадид театри тарихидан /“Salohiyat-Mezon”.-Наманган, 2012.-Б.28.

⁷² Ўша манба.

⁷³ Вохидова К.А. Исхакхан Жунайдуллаходжа Ибрат и его научно-историческое наследие. Автореф: дисс. к.и.н.-Ташкент, 2002.-28с.

ilmdur...Imsiz kishi, asossiz devor degani. Asossiz devor g'oyatda bee'tibor bo'lur. Ilm o'qung-o'qutung axloqi funun, zamonaga darkorlik ilmlar zarur...»⁷⁴. Ibrat ushbu fikrlari bilan zamona yoshlarini o'z davri dunyoviy bilimlaridan ham to'liq xabardor bo'lishga undaydi.

Jadidlar faqat tanqid bilan cheklanmay, ommani bo'layotgan ijobiy, xayrli ishlardan o'rnak olishga, ularga ergashishga chaqirganlar. Masalan, namanganlik mulla Ishoqjonboy Mirsolihboy o'g'lining farzandlari hatna to'yiga ajratgan mablag'ini katta qismini maktab qurilishiga sarflagani haqida «Sadoyi Farg'ona» gazetasida alohida xabar e'lon qilingan. Namanganning ziyoli, mo'tabar boylaridan Mirzahamdani Og'alikuf otalari ta'mir etgan masjididagi maktabni yangi uslubda qayta qurmoqchi ekanligi mamnuniyat bilan qo'llab-quvvatlangan⁷⁵.

Jadidlar ma'rifat o'choqlari hisoblanmish masjid, madrasa, maktablar xarob ahvolda ekanligi, ularning ta'miri ham ulkan savoblar qatorida ekanligini ta'kidlaydilar.

Xulosa qilganda, Namangan jadidlari ma'rifatni omma orasida keng yoyish uchun barcha imkoniyatlarni ishga soldilar. Maktab-maorif, matbuot, badiiy asarlar, teatr san'ati orqali o'z g'oyalarini targ'ib qildilar.

Jadidlarning urf-odatlarimiz, marosimlarimizni o'tkazish, xayrli ishlarni amalga oshirish haqidagi yuqorida ko'rsatib o'tilgan fikr-mulohaza va sayi-harakatlari hozirgi kunimiz bilan hamohang va dolzarbdir.

2.2. Mustamlaka sharoitida Namanganda milliy adabiyot namoyondalarining faoliyati.

O'zbek adabiyoti va madaniyati taraqqiyotida, ilm-fanning o'sishida Namangan diyori va namanganliklarning ham munosib ulushlari bor. Namangan o'lkasi hamisha ijodkorlarga boy bo'lib kelgan, ko'plab yuqori iste'dod egalarini etishtirgan.

Namangan adabiy hayoti hamma vaqt umumo'zbek adabiyotining ajralmas, uzviy bir qismi sifatida, boshqa o'lkalardagi adabiy muhitlar bilan bog'liq holda rivojlanib keldi.

Moddiy va ma'naviy boyliklarga kon Turkiston o'lkasiga ko'pdan buyon ko'z olaytirib yurgan rus podsholigi XIX asrning 60-yillarida o'z muddaosini amalga oshirishga kirishdi. 60-80-yillarda Turkiston, jumladan, hozirgi O'zbekiston erlari chor Rusiyasi tomonidan bosib olindi.

Istilochi va mustamlakachilarning maqsadi tayin edi: o'lkadan xomashyo va ishchi kuchi manbai sifatida foydalanish, bu erning moddiy boyliklarini talash, Turkistonni o'z korxonalarida ishlab chiqargan mollarni sotish bozoriga aylantirish, barcha sohalarda mustamlakachilik siyosatini amalga oshirish. Istilochilar moddiy boyliklar bilan bir qatorda juda ko'p ma'naviy boyliklarni, nodir qo'lyozmalarni, noyob madaniy yodgorliklarni Rusiyaga tashib ketdilar. Ular xalqni, yurtni toroj qilishning xilma-xil usul va vositalarini qo'lladilar. SHu maqsadda, chunonchi, shoir Nodim yozganidek, "Ekmakka paxta tuxmin ko'p bog'lar buzuldi"⁷⁶.

Mustamlakachilar mahalliy xalqqa past nazar bilan qarar, uni qoloqlikda, mutelikda saqlashga intilar edilar. Milliy mustamlakachilik zulmi kuchaya bordi. Mahalliy aholini talash, xo'rlash, qonunsizlik avj oldi. Turli xildagi soliqlar ko'paydi. Fuqaro ahvoli tobora og'irlashdi.

Xalq o'rtasida qanday yangilik bo'lmasin, uni bo'g'ib tashlash choralari ko'rildi. Bunday siyosatni amalga oshirishga bevosita bosh-qosh bo'lgan Turkiston general-gubernatori I. A. Kuropatkin o'z kundaliklarida uyalmay-netmay: "Biz 50 yil tub joy aholini taraqqiyotdan chetda, maktab va rus hayotidan chetda tutdik"⁷⁷, - deb yozadi. Lekin bunday "chetda tutishlar"lar erksevar Turkiston, xususan namanganliklarni ozodlik yo'lidagi harakatlarini yo'qqa chiqara olmas edi. CHor hukmdorlari xalqni ma'naviy, ruhiy, iqtisodiy va siyosiy jihatlardan orqada qoldirish va ezish uchun barcha choralarni ko'rdilar.

Istilodan keyin rus amaldorlari, zodagonlari, osongina boylik orttirish va farog'atda yashash payida bo'lganlar o'lkaga yopirilib kela boshlagan edilar. Ko'chib kelganlarning

⁷⁴ Ўша жойда.

⁷⁵ Қозоқов Т. Жади́длар тўйлар ҳақида //Маърифат.- 1997.- 16 июл.

⁷⁶ Ҳалилбеков А. Наманган адабий гулшани.-Наманган: 2007.-Б.109.

⁷⁷ Ҳасаний М. Туркистон босқини.-Тошкент: Нур, 1992.-Б. 39.

ko'pchiligi shaharlarga, jumladan, Namangan shahriga joylashadi. Vodiya rus qishloqlari paydo bo'ladi. Bunday "tig'izlashtirish" natijasida mahalliy aholining qiynchiligi yanada ortadi.

CHor amaldorlarining o'zboshimchaliklari, jabr-zulmlari xalq g'azabini kuchaytiradi. G'alayonlar avjlanadi. 1882 yilda Namanganda chor ma'murlarining soliq siyosatiga qarshi g'alayonlar bo'ladi. 1883 yilda CHustda, 1885 yilda butun Farg'ona vodiysida xalq harakatlari davom etadi. 1890 yilda Qumqo'rg'on qishlog'ida, keyin boshqa qishloqlarda saylov nayranglariga qarshi ommaviy chiqishlar bo'ladi. Masjidlardan xalqni qo'zg'olonga chaqiruvchi xatlar topiladi.

1893 yilda Namangan uezdida bo'lgan qo'zg'olon ma'murlarni jiddiy bezovta qildi. 1895 yilda bu qo'zg'olon yanada kuchaydi. Dukchi eshon boshchiligida ko'tarilgan 1898 yilgi qo'zg'olonda Namangan uzdining tog'lik aholisidan ham ko'p kishi qatnashdi.

Hurriyatparvar xalqimiz istibdodga qarshi ana shu tarzda tinmay kurashib keldi va hamisha ozodlikka intilib yashadi.

Vrevskiydan keyin Turkiston general-gubernatori bo'lgan Duxovskiy o'lka ahvoli bilan tanishib chiqqanidan keyin aniq xulosaga kelib yozdiki:

"Bu o'lka hali-hanuz tinch o'lka deb hisoblanishi mumkin emas. Mahalliy xalq ko'nglida g'oliblarga nisbatan dushmanlik ruhi bilan yashamoqda..."⁷⁸.

Xalq qo'zg'olonlarini mustamlakachilar shafqatchizlarcha bostirdilar. Ko'p kishini qatl etdilar, yana ko'plarni surgun qildilar.

Elni o'ylab, dardini kuylab. Bu davrda xalq orasidan etishib chiqqan ilg'or ziyolilar ulus dardi bilan yashadilar, elning mustamlakachilarga qarshi nafratini ifodaladilar. Xalq ma'naviyati, madaniyati va ma'rifatini ko'tarish, shu orqali millat taraqqiyotiga, erkiga erishish uchun jonkuyarlik ko'rsatdilar. Millat farzandlarini bilimga da'vat etdilar, elda kitobga qiziqish orttirishga harakat qildilar. Xattotlik, kitobat qilish, bayozchilik an'analari davom etdi. Mulla Muhiddin bin Mulla G'ozixon hoji Namangoniy 1882-1883 yillarda Navoiyning "Xazoyin ulmaoniy" asarini san'atkorlik mahorati bilan ko'chirdi. Abduvahob kotib 1887-1898 yillarda bir necha lirik asarlardan iborat majmua tuzdi.

Davrning qator allomalari ma'naviy hayot va adabiy muhitda ustozlik mavqeida bo'ldilar. SHunday allomalarning eng ko'zga ko'ringani Namangandagi Azizxo'ja eshon madrasasining mudarrisi Inoyatxon Langariydir (XIX asrning oxirgi yillarida vafot qilgan). Bu kishi zamonasining chuqur bilim sohibi, shoiri edi. O'zbek, fors, arab tillarida she'rlar yozgan. Nodim, Xilvatiy, Ibrat kabi shoirlar shu kishidan saboq olganlar. SHoir Xilvatiy ustoz Langariy vafotiga bag'ishlab 40 banddan iborat marsiya yozgan.

Xalq og'zaki ijodida fuqaro yuragidagi istibdodga qarshi tug'yonlar aks etdi. Xalq qo'shiqlarida bu goh falakdan shikoyat, goh zulmga qarshi oshkora nafrat tarzida ifodalandi. Og'zaki ijod vakillari va yozma adabiyotning ilg'or namoyandalari xalq ozodlik harakatiga jo'r bo'lib kuyladilar.

XIX asrning ikkinchi yarmida o'lka adabiy hayotida muhim yangiliklar, o'zgarishlar ro'y berdi. O'zaro do'stlik, adabiy hamkorlik va g'oyaviy-estetik hamjihatlikka asoslangan, uyushgan bir ijodiy hayot, muzofot shoirlarini bir joyga jamlagan, jiplashgan, badiiy tafakkurni yangi pog'onaga ko'targan adabiy jarayon ravnaq topdi. Nodim, Ibrat, SHavqiy, Hayrat, Xilvagi mazkur ijodiy guruhning etakchi vakillari edilar. So'fizoda ham yurtida bo'lgan vaqtlarida bu shoirlar davrasida qatnashib borardi. Furqat aytganidek, "Hamisha majlis bunyod aylab, zodai ta'blar"dan mushoira qilish, "bir g'azalda tatabbu' ko'rsatib, bir mazmunni har tarzda ifodalash", "g'azal mashq" etish, muxammas bog'lash kabi Qo'qondagi singari adabiy mashg'ulotlar Namanganda ham davom etadi. Bunday adabiy anjumanlar goh Namangan, goh To'raqo'rg'onda hamda atrof qishloqlarda, bahavo maskanlarda uyushtirilib borilar edi. SHoir Muqimiy deyarli har yili Namanganga kelib turar, yig'ilishlarga qo'shimcha fayz kiritardi. Bunday suhbatlarda qo'qonlik Muhyi, Zavqiy, G'urbat, marg'ilonlik Rojii va boshqa shoirlar ham ishtirok etganlar. SHoirlar mushoirasi, adabiy-badiiy majlislar namanganlik Nizomxon, Abdulla Taroq kabi

⁷⁸ Халилбеков А. Наманган адабий гулшани.-Наманган: 2007.-Б.110.

sozanda va xonandalarning, goho toshkentlik Mulla To'ychi, samarqandlik Hoji Abdulaziz, xo'jandlik Sodirxon va boshqa mashhur hofiz va bastakorlarning qatnashuvi bilan ziynatlanar, yanada shukuhli tus olardi.

Do'stlar suhbatlari, she'r bahsi, soz navosi, ashula-qo'shiq sadosi ijtimoiy-siyosiy masalalarga oid fikr olishuvlar bilan almashib borardi. Ijtimoiy mazmundagi she'rlarning bunyodga kelishida bunday anjumanlar, suhbatlar katta ahamiyatga ega edi. Maslak va maqsad birligi, adabiy hamkorlik shoirlar ijodida bir xil mavzu va bir xil janrdagi asarlarni yuzaga keltirdi.

SHu tariqa, XIX asr ikkinchi yarmidagi Namangan adabiy muhiti davrning ilg'or ziyolilari, madaniyat va adabiyot arboblari o'zaro hamjihatlikda olib borgan qizg'in ijodiy faoliyatlari mahsuli sifatida bunyodga keldi va taraqqiy etdi.

XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi Namangan adabiy muhitining yirik vakillari o'z ijodlari orqali o'zbek mumtoz adabiyotining rivojiga muhim hissa qo'shdilar. SHulardan biri Mulla SHams SHavqiydir.

Mulla SHams SHavqiy (1805-1889) O'zbek va fors - tojik adabiyoti tarixida SHavqiy taxallusi bilan ijod qilgan shoirlar o'ndan ortiq. XIX asrda SHavqiy taxallusli olti shoir bo'lgan. Bular orasida iste'dodli so'z san'atkori va tarixchi Mulla SHams SHavqiy Namangoniy o'ziga xos ijodiy qiyofasi bilan ajralib turadi.

Mulla SHams Mulla Husan o'g'li SHavqiy 1805 yilda Namangan shahriga yaqin bo'lgan, hozirgi To'raqo'rg'on tumaniga qarashli Kalvak qishlog'ida bo'zchi-kosib oilasida tug'ildi.

Mulla SHams o'z qishlog'idagi boshlang'ich maktabda ta'lim olgach, SHahand qishlog'idagi madrasaga o'qishga kiradi. Bu erda arab va fors tillarini mukammal o'rganadi. Navoiy, Jomiy, Hofiz, Fuzuliy, Bedil va boshqa SHarq mumtoz shoirlarining asarlarini chuqur mutolaa qiladi. SHu go'zal qishloq qo'ynida madrasa ta'limi davomida uning ijodi shakllana boradi. SHoir o'ziga kuchli orzu, zo'r havas, astoydil intilish, istak hamda o'rtanish ma'nolaridagi shavq so'zini taxallus qilib oladi.

1840 yilda u poytaxt Qo'qonga boradi. Qo'qon shoirlari davrasida bo'lib, ular orasida e'tibor qozonadi. Biroq oradan ikki yil o'tgach, Buxoro amiri Nasrullo Qo'qonga bostirib kelib, qirg'in qiladi. Xon va uning avlodlarini, xalqning sevikli shoirasi Mohlaroyim - Nodirani qatl ettiradi. Bu dahshatli voqealardan keyin shoir Qo'qonni tark etadi. Qishlog'iga qaytib, hunarmandlik bilan tirikchilik o'tkazadi.

1845 yilda Qo'qon taxtiga Xudoyorxon ko'tarilgach, SHavqiy Qo'qonga borib, xonlik devonida xizmatda bo'ladi. 1858 yilda Mallaxon taxtni egallagandan keyin, shoir yana o'z qishlog'iga keladi. Bu erda maktabdorlik bilan shug'ullanardi⁷⁹.

SHavqiyning g'azallari, masammatlari, masnaviyatlari va "Jome' ul-havodis" dostonidan iborat devoni XIX asrning 90-yillarida ko'chirib kitobat qilingan. 1908 va 1912 yillarda nashr etilgan "Tuhfat ul-obidin va anis ul-oshiqin" bayoziga bir qancha she'rlari kiritilgan. SHavqiy she'rlari boshqa qo'l yozma va toshbosma bayozlarda ham uchraydi.

Mulla SHams SHavqiy to'g'risidagi dastlabki ma'lumotni rus sharqshunosi V. P. Nalivkin beradi. U shoirni o'z davrining peshqadam kishisi deb baholaydi. Farg'ona tarixini o'rganishda undan yordam olganligini aytadi. Nalivkin SHavqiyning "Jame' ul-havodis" asarini o'rganib, 80-yillarning boshlarida undan o'ziga nusxa ko'chirtirib olgan. 1963 yilda professor G'. Karimovning "SHavqiy poeziyasining realistik kuchi" ("SHarq yulduzi", 2-son), 1970 yilda F. Ahmadjonovanning "SHavqiy Namangoniy" ("O'zbek tili va adabiyoti", 4-son) maqolapari bosildi. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti 1982 yilda chop etgan "Asrlar nidosi" majmuasida SHavqiy Namangoniy haqida axborot, uning ikki g'azali, bir mustazodi, "Pandnoma" asarining qisqartirilgan nusxasi, "Jome' ul-havodis" dostonidan parcha berildi. G'. Karimov yozgan oliy o'quv yurtlari filologiya fakul'tetlari uchun "O'zbek adabiyoti tarixi"

⁷⁹ Халилбеков А. Наманган адабий муҳити.-Наманган, 2007.-Б.116.

darsligi (uchinchi kitob)dan (1975, 1987) SHavqiy hayoti va faoliyatiga doir ma`lumotlar joy olgan⁸⁰.

YAna bir iste`dodli shoir eshon Boboxon Nodimdir (1844-1910 yy).

Bu lafzi birla Nodim to`tiyi shirin kalom o`lgay,

Urubon shakkaristoni maoniy ichra minqorin.

Ushbu satrlar muallifi Nodim Namangoniy iste`dodli va nozik ta`b shoir, pishiq va etuk asarlar ijodkori, maoniy va lafzda ko`zlagan orzu va muddaolariga erishgan mahoratli so`z san`atkoridir.

Nodimning adabiy merosi rang-barang lirik she`rlardan, tanqidiy va hajviy asarlardan, ma`rifatparvarlik ruhidagi manzumalardan, sayohatnomalar, soqiynomalardan, "Layli va Majnun" dostonidan iborat. SHoir ijodining kattagina qismini ijtimoiy hayot masalalariga bag`ishlangan, mustamlaka davridagi ommaning og`ir turmushini yaqqol aks ettiradigan, ularning jabr-zulmga qarshi g`azab-nafratini ifoda qiladigan xalqchil asarlar tashkil etadi⁸¹.

Nodim asarlari asosan o`zi tartibga keltirgan qo`l yozma bayozga jamlangan. "Bayozi Nodim"ning mukammal nusxasi O`zRFA Beruniy nomli SHarqshunoslik instituti xazinasida 4179 raqami bilan saqlanmoqda. "Bayozi Nodim"ning ikkinchi nusxasi ham akademiya fondida. Har ikkala nusxaga shoirning asosan o`zbek tilida va qisman fors tilida yozgan g`azal va muxammaslari, murabba, musaddas, musamman, ta`rix, soqiynoma va sayohatnomalari kirgan. SHoir bayozi muqaddimasida yozadi:

Bayozi Nodimiy pinhonidur bu,

Nigoridur savodi xatti gisu.

Baroyi yodgori jumla ahhob,

YOzildi bir necha abyoti dilju.

SHoir she`rlari ko`pgina qo`lyozma va bosma bayozlarga kiritilgan. Ilmiy adabiyotda Nodim nomi, dastavval, O`zFA muxbir a`zosi O.SHarafiddinov tuzgan "O`zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi" (1945)da hamda akademik T. N. Qori-Niyoziyning "Sovet O`zbekistoni madaniyati tarixidan ocherklar" (1955) asarida tilga olinadi. Professor G`ulom Karimov Muqimiy "Tanlangan asarlar"ining 1958 yilgi nashriga yozgan sharhlarida shoir Nodim to`g`risida ham ba`zi ma`lumotlar keltiradi.

Nodim tarjimai holi va ijodiy faoliyatiga oid dastlabki materiallar 1959 yilda e`lon qilindi. 1960 yilda G`. Karimovning Toshkent Davlat universiteti Ilmiy asarlari to`plamida "Nodim Namangoniy haqida" maqolasi bosildi. SHoir ijodi bo`yicha A. Xalilbekov qator tadqiqot ishlarini yuzaga chiqardi. Bular "O`zbek tili va adabiyoti" jurnalining 1963 yilgi 2-sonida, 1966 yilgi 1-sonida, 1987 yilgi 2-sonida, 1990 yil 2-sonida chiqqan maqolalar, Nodim "Tanlangan asarlar"i (1964 yilda Aziz Tursun bilan hamkorlikda nashr ettirilgan), "O`zbek adabiyoti" 5-jild, 2-kitobidagi (Toshkent, 1968) Nodim haqida ma`lumot va asarlaridan namunalar, "O`zbek adabiyoti tarixi" 5-jildida (Toshkent, 1980) Nodim to`g`risida maqola va boshqalar.

Umrzoq Hayrat (1845-1915 yy.) Hayrat taxallusi bilan ijod qilgan shoir Umrzoq Xolboy o`g`li XIX asrning ikkinchi yarmidagi Namangan adabiy muhitining taniqli vakillaridandir.

Umrzoq Hayrat 1845 yilda To`raqo`rg`on tumanining YOrtepa qishlog`ida tug`ildi. Boshlang`ich ma`lumotni qishloq maktabida olgan Umrzoq To`raqo`rg`ondagi G`oyibnazar madrasasiga o`qishga kiradi. Tahsil davomida u o`zbek va fors-tojik mumtoz adabiyoti namoyandalarining asarlarini chuqur mutolaa qiladi. Xattotlikka mehr qo`yadi, 6u san`atni qunt bilan o`rganadi.

Madrasani tugatgan Hayrat To`raqo`rg`on mingboshisiga mirzalik vazifasiga xizmatga kiradi. Kishilarga maktublar, merosnomalar yozib berib, kitoblarni ko`chirib hojatbarorlik qiladi.

Hayrat xalq farzandlarini ma`rifatli qilish uchun qayg`urib, bu ishlarga astoydil bosh qo`shadi. Qishloq bolalarining maktablarga joylashishi, o`qishi uchun yordamlashadi. Maorif va

⁸⁰ Халилбеков А. Наманган адабий гулшани.-Наманган: 2007.-Б.115.

⁸¹ Халилбеков А. Наманган адабий муҳити.-Наманган, 2007.-Б.125.

madaniyatni targ'ib qiladi, dunyoviy bilimlarni o'rganishga davat etadi. Hayrat umr bo'yi badiiy ijod va xattotlik bilan shug'ullandi. SHoir 1915 yilda qishlog'i YOrtepada vafot qiladi.

SHoir Hayratning o'z qo'li bilan yozgan devonida o'zbek va fors tillaridagi lirik she'rlari: g'azaplar, murabba', muxammas, musaddas, masnaviy va ruboiylari jamlangan. SHuningdek, unga "Sayohatnoma", "Maktub", "Muborakbodnoma" kabi yirik asarlari ham kiritilgan. Mazkur devoni mazmuni va mundarijasini shoir quyidagicha bayon qilgan:

*Eshitgan, o'qug'onga Hayratiydin armug'ondur bu,
Dilidin, rozi ifshodin bayon ham tarjumondur bu,
YOzilgan safhai ko'nglumda ilhomi ilohiydin,
Ki bir nozik adodildor vasfedin nishondur bu.*

XIX asrning ikkinchi yarmi Namangan adabiyoti tarixida muhim bosqichni tashkil etdi. Bu davrda Nodim, Ibrat, SHavqiy, Xilvatiy, Hayrat kabi etuk shoirlar boshchiligida mushtarak, serfayz bir adabiy muhit faoliyat ko'rsatdi va taraqqiy etdi. Adabiyotga ozodlik, istiqloq g'oyalari kirib keldi.

2.3. Namangan me'morchiligi.

O'zbek xalqining madaniy merosi bo'lmish me'morchilik san'ati ming yillar davomida yaratilgan. O'tmishda ota - bobolarimiz qurgan muxtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo'qotmagan. YUksak did bilan ishlangan bezaklar bilan hozirgacha xayratga solib kelmoqda. Me'morchilik shunday bir san'atki, unda ijodkor xalqning tarixi, tafakkuri, orzu - umidlari, o'ziga xos xususiyatlari, dunyoqarashi, qiziqishi, barcha xislatlari namoyon bo'ladi. Jumladan, qo'xna shaharlarimizda chiroyini ko'z - ko'z qilib turgan maxobatli me'moriy obidalaridagi oddiy g'ishtdan tortib naqshlar koshinlaru o'ymakorlik san'atining nodir durdonalarigacha o'tmishdagi xalqimiz hayoti, madaniyatidan darak beradi.

Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva, Qo'qon, Qarshi va boshqa qadimiy shaharlarning yoshini 20 -25 asrdan ko'p deya e'tirof etilishining o'zi o'lkamizda me'morchilik tarixi naqadar uzoqlarga borib taqalishini ko'rsatadi⁸².

Namangan shahrida bir qator ajdodlarimiz tomonidan bunyod etilgan me'moriy yodgorliklar borki, asrlar o'tsada u yoshlarimizni o'z tug'ilib o'sgan ona tuproqlariga mexr-muxabbatlarini yanada mustaxkam bo'lishida katta manba bo'lmoqda.

Namangan shahridagi me'moriy obidalarining ajoyib namunalaridan biri «Sumalak guzar» maxalla markazida, «Uychi» ko'chasida joylashgan «Atoullixon to'ra» masjididir. (Bu masjid maxalliy xalq iborasida Otavalixon to'ra masjidi deb atab kelinadi). Tarixdan ma'lumki, Namangan shahri to'rt qismdan iborat bo'lib, Labbaytog'a, Sardoba, CHuqurko'cha, Degrezlik daxalariga bo'lingan. Mazkur daxalarning xar birida jome' masjidlari va madrasalari bo'lgan. Jumladan, Degrezlik daxasining markazida, ya'ni hozirgi Atoullixon to'ra masjidi o'rnida xam XVII asrning oxirida bunyod etilgan madrasa va katta jome' masjid binosi mavjud edi. Manbashunos Axmad Ubaydullox «Namangan haqiqati» ro'znomasi 2007 yil 31 yanvar' sonida «Nodir obidalaridan biri» maqolasida yozishicha, ushbu madrasa va masjid yog'ochdan sinchli qilib qurilgan bo'lib, binoning ichki va tashqi ko'rinishlari xamda jome' masjidining ayvoni nihoyatda did, amaliy san'atning go'zal usullari bilan naqsh qilinib, ziynatlangan xamda arab yozuvining kufiy, suls, nash va nasta'liq usullarida oyatlar, hadislar hamda salovatlar yozilgan edi. SHuningdek, ganch va yog'och o'ymakorligi ishlari nihoyatda mohirona bajarilgan⁸³.

XIX asrda Xalifa Abdulaziz nomi bilan mashxur bo'lgan so'fiy shoir Abdulaziz Xasanxo'ja o'g'li Majzub Namangoniy mazkur madrasa va jome' masjidini ta'mirlab, shu erda faoliyat ko'rsatib, mudarrislik qiladi. SHu davrdan boshlab bu madrasa va jome' masjid Xalifa Abdulaziz madrasasi nomi bilan atay boshlanadi. Xalifa Abdulaziz vafotidan so'ng oradan bir qancha yillar o'tgach, XX asrning boshlariga kelib, sababi noma'lum bo'lgan yong'in natijasida masjid va madrasa binolari tamoman kuyib ketadi.

⁸² Абдуқаҳҳоров А. Обидалар жилваси.-Тошкент: Ўзбекистон, 1992.-Б.8.

⁸³ Убайдуллоҳ А. Нодир обидалардан бири //Наманган хақиқати.-2007.-31 январь.

Bo`lib o`tgan yong`indan so`ng Xalifa Abdulazizning nabirasi Atoullixon (Otavalixon) to`ra boshliq Degrezlik daxasiga qarashli maxallalarning oqsoqollari o`zaro maslaxatlashib, kuyib ketgan masjid va madrasa binosining o`rniga yangidan gumbazli jome` masjidi qurishga qaror qildilar.

Bo`lg`usi masjid binosining loyixasi ishlab chiqiladi, loyixasiga muvofiq masjid katta gumbazli bo`lib, yog`och ishlatmasidan faqat pishiq g`ishtdan qurilishi va binoning oldi tomoni ikki quvvatli bo`lishi, ichki qismi ajoyib san`atli turli o`yma naqshlar bilan bezatilishi kerak edi. Atoullixon to`ra masjidining mazkur loyixasi hozirda Respublika markaziy Davlat arxivida saqlanmoqda. Bunday ulkan gumbazli binoni qurish ishi oson bo`lmaganligi uchun taklif etilgan ustalarning ko`pchiligi bu murakkab va mas`uliyatli vazifani qilmadilar. Nixoyat o`sha davrning mashhur me`mori namanganlik Ibroxim me`morning o`g`li Usta Mulla Qirg`iz qurilish ishlarini o`z zimmasiga oladi. Usta Mulla Qirg`iz xaqiqiy ustazoda bo`lib, me`morlik san`ati soxasida tug`ma iste`dodga ega edi⁸⁴.

1915 yilning baxorida qurilish ishlari boshlab yuborildi, qurilish jarayonida Usta Mulla Qirg`iz bilan yonma - yon uning is`tedodli shogirdlaridan Usta Fozil Namangoniy, soqov Xoji va boshqalar birga ishlaydilar. Usta Mulla Qirg`iz masjid qurilishida o`zining barcha tajribasini ishga soladi va maxoratini namoyon qiladi. Chunki, bunday murakkab qurilish inshootlari kamdan - kam bunyod etilar edi.

Namangan shahrida saqlanib qolgan noyob yodgorliklar qatorida Ko`zagarlik ko`chasidagi «Xojamning qabri» maqbarasidir. Ushbu maqbara xaqida I.E.Pletnovning 1968 yilgi «O`zbekiston» nashriyatida «Xo`ja Amin qabri» nomi bilan chop etilgan risolasi bor. Unda maqbarani «Xoja Amin qabri» deb noto`g`ri talqin qilinadi va maqbara qurilishiga oid deyarli hech qanday ma`lumot berilmaydi, asosan maqbaraga ta`rif berish bilan kifoyalaniadi.

So`nggi vaqtlardagi izlanishlar natijasida maqbara, masjid va madrasa tarixiga doir ba`zi ma`lumotlar topildi. Bular keksa kishilar bilan suxbatlashganda yozib olingan og`zaki esdaliklardan iborat bo`lib, yozma manbalar etarli bo`lmagani uchun, Ushbu esdaliklarning xaqiqatga yaqin bo`lganlaridan birini misol keltiramiz. Aytishlaricha, deb so`z boshlanadi, adabiyotshunos Axmad Ubaydulloxning «Namangan xaqiqati» ro`znomasidagi 2006 yil 22 noyabr` sonidagi «noyob yodgorlik» maqolasida. XVI asrning oxirida SHayxontoxur (aslida to`liq ismi SHayx Xovandi Toxur) avlodidan Iminxo`ja Parranda degan kishi Toshkentdan Namanganga kelib, o`rnashib qoladi. Bu erda unga ixlos qiluvchi kishilar kun sayin ko`payib boradi. Natijada tez kunda katta er -suv, bexisob boylikka ega bo`ladi. Iminxo`ja parrandaning Xoldorxo`ja degan o`g`li bo`lib, Xoldorxo`jadan ikki o`g`il qoladi. Kattasi YOqubxo`ja Qashqarga ketadi, kichigi Ibroximxo`ja esa Namanganda qoladi. Ibroximxo`janing qizi bo`lib, uni Mirxo`ja eshon degan kishiga turmushga uzatadi. Ibroximxo`ja vafotidan keyin o`g`li bo`lmaganligi uchun barcha boyligi kuyovi Mirxo`ja eshonga qoladi. Mirxo`ja eshon meros qolgan boyliklar evaziga qaynotasi Ibroximxo`ja xotirasi uchun taxminan XVII asr oxiri, XVIII asr boshlarida Ibroximxo`ja qabrini oldi tarafiga maqbara qurilishini boshlab yuboradi⁸⁵.

Qurilishga o`sha davrdagi moxir me`morlar jalb qilinib, maqbara juda nozik did bilan qurib bitkaziladi.

Maqbara binosini bezashda XIV asr boshida O`rta Osiyo me`morchilik bisotidan unitilib ketgan o`yma sopol (terrakota) dan foydalanilgan. Bu san`at O`rta Osiyo me`morchiligida bir necha yuz yillar yo`qolib ketib, hech kutilmaganda Namangandagi Xo`jamning qabri maqbarasini bunyod etishda ajoyib o`yma tarzida qaytadan dunyoga keladi.

Binoning asosiy chehrasi, peshtoqi, ravoqsimon, arkli va burchaklari kichik minorali qilib ishlangan. Peshtoq enli va ensiz belbog`lar bilan bezatilgan. Belbog`larga o`simliklar tasviri xamda shtrixlar solingan. enli belbog`lar sopol parchinlar bilan bezatilgan bo`lsa, ensiz

⁸⁴ Юсупов И.Ю., Мирзаалиев Э.Ю. Наманган вилояти меъморий обидалари сирлари.- Наманган, 2007.-Б.48.

⁸⁵ Убайдуллоҳ А. Ноёб ёдгорлик //Наманган хақиқати.-2006.-22 ноябрь.

belbog'lar ganjiga ikki qatlamli o'yma naqsh solib ishlangan. ensiz belbog'lardagi o'yma naqshning zamini ilgari qizil, rangga bo'yalgani xamda tiniq oq naqshning foni bo'lib xazmat qilganini ta'kidlamoq lozim. endilikda xar ikala qatlamning xam rangi bir xil bo'lib ko'rinadi va tusiga ko'ra, o'yma sopol parchasidan farq qilmaydi⁸⁶.

Namangan shahriga ajoyib xusn berib turgan arxetektura yodgorliklaridan yana biri qurilishi 1910 yilda boshlanib, 1912 yilda tugallangan Mulla Qirg'iz madrasasidir. Nixoyatda qisqa fursatlarda qurib bitkazilgan bu noyob inshoot 41 xujra va 3 ta gumbazdan iborat. Madrasa asosan pishiq g'ishtdan ark uslubida qurilgan. Bu esa qadimiy O'rta Osiyo me'morchilik an'analariga mos tushadi. U g'isht terish uslubi, besh burchak shaklida ishlanganligi bilan ajralib turadi xamda bino peshtoqidagi koshinkorlarning nafisligi bilan kishini maftun etadi. Yodgorlikning bosh fasadi ikki qavatli qilib qurilgan. Xovliga kirilgach, o'ng tomonida gumbazli darsxona xamda masjid joylashgan. Peshtoq ravog'i ichiga esa: «Zabarjat toku zar oltin birla bu xat yozilmishdir. Karam axlining exsonidan, o'zga qolmagay boqiy», ya'ni «Xar kim o'zi ketsa xam, uning exsoni abadiy qoladi». Uning yoniga esa: «Boqiy Mulla Qirg'iz ibn Mashrabboy tijoriy. Usta Mulla Qirg'iz ibn Ibroximboy me'mori» ya'ni Mulla Qirg'iz Mashrabboy savdogar o'g'li. Usta Mulla Qirg'iz Ibroximboy me'morning o'g'li» deb, madrasani qurdirgan odamning nomi xamda me'mori qayd etilgan.

Peshtoq yuzasi xamda uning ichiga ganchsiz qilib terilgan sirkorlik usuli qo'llanilgan bo'lib, u Farg'ona vodiysi yodgorliklariga xos bo'lgan oq, zangori, xavorang, sariq, ko'k va och ko'k rangdagi koshinlarni tashkil etadi.

Ayniqsa, madrasaning o'ng tomonida joylashgan darsxona xamda masjidning qurilish usuli tashqi xamda ichki me'moriy ko'rinishi diqqatga sazoadir. Ular ustiga baxaybat gumbazlar ishlanib, gumbazlar ustiga esa, xona ichkarisiga yorug'lik tushib turishi uchun xashtallar o'rnatilgan.

B.Ro'zinov, S.Rajabovalar risolasi keltirilgan manbalarda ko'rsatilishicha⁸⁷, Mulla Qirg'iz madrasasining tiklanishida Mirza Dadaboy va Toshboltavoy degan ustalar tomonidan tayyorlangan to'g'ri burchak shaklidagi g'ishtlar ishlatilgan bo'lsa, madrasa peshtoqiga yopishtirilgan barcha koshinlarni Mulla Mamasiddiq, Abdurahmon, Abduqahhor va Mamadali kulollar yodgorlik xovlisida aloxida xumdon qurib pishirib tayyorlaganlar. Usta Qirg'iz o'z ishining moxir ustasi sifatida xalq orasida xurmat- e'tiborga va katta obro'ga ega bo'lgan. Uning yuksak ijod maxsuli bo'lgan Mulla Qirg'iz madrasasining boshqa inshootlardan ajralib turishi, o'zining me'moriy tarx echimi, tashqi va ichki ko'rinishi bilan boshqa madrasalardan tubdan farq qilishidadir.

Usta Qirg'izning ijod maxsuli xisoblanmish Namangan shahridagi «Atoullixon To'ra» masjidi, «Mulla Qirg'iz» madrasasi, To'raqo'rg'ondagi «G'oyibnazar Qozi» madrasasi, CHust shahridagi «Mavloni Lutfillox» me'moriy ansambllari tarkibiga kiruvchi mazkur binolar xar qaysisi o'z tarixiga ega.

Mulla Qirg'iz madrasasining o'ta nafis did, xamda zo'r maxorat bilan milliy me'morchilik uslubida qurilganligi, uning an'anaviyligi bilan emas, balki bino o'rni, tabiiy sharoitiga qarab loyixalanishi, tarx echimining o'ziga xosligi bilan diqqatga sazovorligi me'morning yuksak maxorat egasi ekanligidan dalolat beradi⁸⁸.

Namangan shahrining Sardoba daxasida joylashgan, barpo etilgan yili noma'lum bo'lgan, arxetekturasi va dekoratsiyasiga ko'ra, XX asr boshlariga oid Qodirxo'jaboyga tegishli turar- joy yodgorligi bizning kunimizgacha etib kelgan. Binolar P shaklida qurilgan bo'lib, markaziy qismida kirish yo'lagi va ikkita zal joylashgan. CHap qanotida bitta bino joylashgan, o'ng qanotda kirish yo'lagi va uchta uy bo'lib, ulardan biri oynavand ayvonli bo'lgan. Uyning bu

⁸⁶ Юсупов И.Ю., Мирзаалиев Э.Ю. Наманган вилояти меъморий обидалари сирлари.- Наманган, 2007.-Б.52.

⁸⁷ Рўзинов Б. Наманган меъморлари //Наманган ҳақиқати.-2002.-25 май.

⁸⁸ Юсупов И.Ю., Мирзаалиев Э.Ю. Наманган вилояти меъморий обидалари сирлари.- Наманган, 2007.-Б.74.

qismi buzilib ketgan va hozirgi kunda qayta tiklangan. Uyning saqlanib qolgan qismi, ya'ni markaziy qismi va chap qanot XX asrning boshiga xos bo'lgan evropacha uslubdagi rang tasvir bilan uyg'unlashgan xolda milliy usuldagi naqshlar va qisman ganch o'ymakorligi namunalari bilan bezatilgan. Evropa rangtasvir namunalari asosan devorlarning ko'p qismini bezatishga xizmat qilgan, lekin bu bezaklarni yuqori darajada deb bo'lmaydi. Ta'mirdan so'ng dastlabki bezaklardan namunalar qoldirilgan. Shift bilan devor oralig'idagi suratlarda manzara va rangtasvir aks ettirilgan. Bu suratlar san'at yodgorligi darajasida emasligi ko'rinib turadi, chunki bu bezaklarni yosh bo'yoqchi shogirdlar ishlagan. Xonadagi saqlanib qolgan novlardagi tasvirlarda milliy naqshlar xamoxangligiga uncha mos bo'lmagan Evropa manzarali rangtasvir namunalari uchraydi. Maxalliy axolining aytishlariga ko'ra, ayvonning devor qismida ganch va naqshli bezaklar mavjud bo'lgan. Ayvon shifti va vassa juftlari to'la naqshlangan xolda bo'lgan.

Maxdumi eshon masjidi Namangan shahrining Marg'ilon ko'chasida joylashgan. Maxdumi eshon masjidi 1808 yilda Mulla Buvaboyning mablag'i xisobiga barpo etilgan bo'lib, usta Ismatillo boshchiligidagi binokorlar tomonidan qurilgan. 1938 yilgaga masjid sifatida faoliyat ko'rsatgan. Keyinchalik dinga qarshi kurash davrida bu masjid yopib qo'yilgan. 1946 yil ikkinchi jaxon urishidan so'ng davlat ruxsati bilan qaytadan masjid sifatida ochilib, hozirgi kunga qadar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Namangan tumani Mulla Kuding qishlog'ida 1914 yilda qurilgan Abduvali Nurmatboy masjidi mavjud. Masjid binosi ikki qismdan iborat bo'lib, xonaqox va ayvondan tashkil topgan. Shiftlarga vassa juftlar terilgan bo'lib, moybo'yoqlar bilan bezatilgan. Shiftdagi taxtadan qilingan romlar ichiga Qur'oni Karimdan olingan oyatlar bitilgan. Masjid ichidagi bitiklar orasida «Boni Abduvaliboy pisari arjumanda Muxammadyorboy, sana 1332» degan yozuvlar mavjud. Kosonsoy tumanining SHayxon qishlog'ida me'moriy - badiiy sifatlari bilan ulug'vor va e'tiborga loyiq XVIII asrga mansub bo'lgan YUsupxon eshonto'ra majmuasi bunyod etilgan. Farg'ona vodiysiga xos an'anaviy uslubda qurilgan panjara bilan o'ralgan qabr, xovliga g'arb tomondan taqab solingan peshtoq - gumbazli ziyoratxona (68x5 m) dan iborat. Majmua o'z atrofidagi yam - yashil bog'larga tarkiban qo'shilib ketadi. Ziyoratxonaga kiraverishda ikki yoniga balandligi 10 metrdan ziyod aylana - minora guldastasi ishlangan bo'lib, xashamatli peshtoq tomonli ziyoratxona joylashgan. Ziyoratxona gumbazi yulduzsimon yigirma qirrali poygumbazga o'rnatilgan. Bunday shakldagi poygumbaz O'rta Osiyodagi ilk yodgorliklarda ham, so'nggi davr yodgorliklarida xam uchraydiki, bu ana va konstruktiv usullarning saqlanib kelayotganligidan darak beradi. Ziyoratxona burchaklarida rivojlantirilgan to'qqiz qavatli sharafa yacheykalar bo'lib ular gumbazga aylanib boradigan sakkiz qirralikni xosil qiladi⁸⁹.

Ravoq bilan yakunlangan peshtoqqa me'mor aloxida e'tibor bergan va yodgorlikning bu qismini o'yma bezak bilan ishlagan. Ziyoratxonaning me'moriy - badiiy tuzilishi Marg'ilonidagi bir xonali salobatli Pir Siddiq maqbarasini eslatadi. Xajmlar tuzilishi, peshtoqning to'g'ri burchakli pannolarga ajratilganligi va ularning ganchga o'yma shakllar xosil qilib bezatilganligi jixatidan ham xar ikkala yodgorlikda o'zaro o'xshashlik bor.

Ammo Marg'ilonidagi maqbarada ko'k va oq naqshlardan foydalanilgan bo'lsa, mazkur xolda bezakda och moviy va qizil ranglar ishlatilgan. Burchak ustunlari ko'p uchramaydigan dumaloqlangan poy ustunlarga ega, ularning esa to'g'ridan - to'g'ri erga qo'yilgan bo'lib, uzunligi asta - sekin kichrayib borib, bezakli gumbaz mezanalari bilan yakunlanadi. Eshiklar sidirg'a o'yma naqshlar bilan bezatilgan. Odmi rangdagi girix va islomiy naqshlar somon suvoqning navvotrang rangi bilan uyg'unlashib, me'moriy yodgorlikni shinam ko'rsatadi. Rus sharqshunos olimi, professor A.A.Semyonov Mavlono Lutfullox xayotini chuqur o'rganish maqsadida 1914 yilda Farg'ona vodiysiga, avvalo Namanganga, so'ng CHustga kelgan. Mavlono Lutfullox qabri joylashgan erga borib, ushbu mozor shayxi, Mavlono Lutfullox avlodidan bo'lgan shaxs qo'lidan u xaqida yozilgan qo'lyozma kitobni oladi. Bu qo'lyozma «Nurga yo'g'irilgan donishmandlar ximmati» nomi bilan atalib, u 216 betdan iborat bo'lgan. Professor

⁸⁹ Юсупов И.Ю., Мирзаалиев Э.Ю. Наманган вилояти меъморий обидалари сирлари.- Наманган, 2007.-Б.65.

A.A.Semyonov qo'lyozmani uzoq yillar davomida xar tomonlama o'rganib chiqib, «XVI asr O'rta Osiyo adabiyotining ulkan yodgorligi» nomli yirik ilmiy maqola yozgan. Qo'lyozmada ta'kidlanishicha Mavlono Lutfullox xozirgi Pop tumani CHodak qishlog'ida 1487 yilda tug'ilgan. Tog'asi Xisomiddin qo'lida islom ilmini o'rgangan. Lutfullox mashxur Xo'jagon Maxdumi A'zam Kosoniy qo'lida xam ta'lim oladi. U Lutfulloxni Farg'ona vodiysi bo'yicha o'z o'rinbosari deb e'lon qiladi. Maxdumi A'zam Kosoniy vafot etgach, ya'ni 1541 -1542 yillarda Mavlono Lutfullox nafaqat Farg'ona vodiysida, balki butun O'rta Osiyodagi yirik din xomiyi, Xo'jagonlar raxnamosi bo'lib qoldi.

CHust shahar madaniyat va istiroxat bog'ida joylashgan Mavlono Lutfullox majmui Farg'ona vodiysidagi Naqshbandiya tariqati namoyondasi, din arbobi, xalq orasida mashxur mirob, tabib va siyosiy arbob sifatida tanilgan shaxs xurmati uchun xalq tomonidan barpo etilgan. Ziyoratgoxga keluvchilar Mavlono Lutfullox qabrini tavof etib, uning ruxi pokiga Qur'on tilovat qiladilar. Mavlono Lutfullox majmuasi XIX asr oxirlarida moxir me'mor Usta Mulla Qirg'iz o'z shogirdlari bilan ushbu minorani barpo etdilar.

Ta'mirshunoslik instituti me'mori Abdujabbor YAx'yaev tomonidan majmua 1999 -2001 yillarda qayta ta'mirlanib obodonlashtirildi.

Ta'mir ishlarida Qo'qon ustalari o'z maxoratlarini ko'rsatdilar va majmuaga qaytadan xayot baxsh etildi⁹⁰.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida qurilgan bu majmua shundan dalolat beradiki, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, CHust azaldan xunarmandlar shahri bo'lib, xalq amaliy san'ati bilan bir qatorda me'morchilik xam rivojlangan. Majmuaning old tarafi, ya'ni ayvonning uzunligi 28 metr eni 7,2 metrni tashkil qilib, ustunlari, to'sinlari, vassajuftlari xalq amaliy san'atining ajoyib namunalari bilan bezatilgan. Qirrali yog'och ustunlar shakllari soddalashtirilgani xolda yog'och shiftlariga o'rnatilgan. SHift juda bejirim va xilma - xil zangori, moviy rangli geometrik va islimiy naqshlar bilan ziynatlangan. Bu erda yurtimizning birinchi xalq shoiri Muxammad SHarif So'fizoda va shoir Nabijon Xo'jaev- CHustiylarning byustlari xam qo'yilgan. Bu byustlarni O'zbekiston xalq rassomi shu erdan etishib chiqqan xaykaltarosh Ilxom Jabborov amaliga mansubdir.

CHust shahri respublikamizning boshqa shu kabi shaharlaridan o'zining aloxida xususiyatlari bilan farq qiladi. CHust barcha qadimiy an'anaviy, xattoki sharqona milliy ruxga ega bo'lgan shahardir. SHaxarning markazidagi madaniyat va istiroxat maskani mustaqillik tufayli uning madaniy - ma'rifiy dam olish joylari qayta ta'mirlanib, bog'dagi favvora va anvoyi gullar ziyoratchilar baxri dilini yanada ochadi, ularga xush kayfiyat bag'ishlaydi. Bu maskan doimo odamlar bilan gavjum. Bog' ma'muriyati kelgan mexmonlarga yuqori saviyada xizmat ko'rsatish yo'llarini izlashmoqda.

Ikkinchi bobga xulosa qilib shuni aytish mumkinki, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Namangan uezdida madaniy hayotning o'ziga xos jihatlari uning mustamlaka sharoitida taraqqiy etganligida edi. Namangan uzedida ham jadidlar madaniy-ma'rifiy jabhadagi faoliyat yuritdilar. Ularning sa'i-harakatlari bilan ko'plab yangi usul maktablari ochildi. Teatr sohasiga asos solindi. Gazeta va jurnallar nashr etildi. Milliy manfaatlarga xizmat qiluvchi bosmaxonalar tashkil etildi. Mustamlaka sharoitida Namanganda milliy adabiyot namoyondalarining faoliyati ham o'ziga xos tarzda davom etdi. Nodim Namangoniy, Xilvatiy, SHavqiy kabi shoirlar o'z she'rlarida xalq dardu xasratlarini kuyladilar. Namangan me'morchiligi borasida bu davrda yaratilgan masjid va ziyoratgohlarning alohida ta'kidlab o'tish joiz. Ularning ko'pchiligi so'nggi davrlarda omborxonalar, xarabazorlarga aylantirilgan bo'lsa, mustaqillik sharofati bilan ular ta'mirlandi, xalq mulki sifatida xalqimizga yana qaytarildi.

⁹⁰ Латипов К. Фарғона меъморий обидалари.-Фарғона: 1992.-Б.56.

XULOSA

Istiqlolga erishilgandan so'ng, tarix fani sohasida ham ulkan ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi qarori⁹¹ tariximizning kontseptsiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Prezidentimiz I.A.Karimovning 1998 yil 26 iyunda bir guruh tarixchi olimlar, jurnalistlar, ijodiy soha xodimlari bilan bo'lgan uchrashuvda bildirgan fikr-g'oyalari, 2000 yil 8 iyunda esa «Fidokor» gazetasi muxbirining savollariga bergan javoblarida ijtimoiy jarayonlarimizning dolzarb masalalari qatori tariximiz haqida ham ko'pdan-ko'p dasturulamal, kontseptual, yangicha talqinlar ilgari surildiki, ular tarix fanining ustivor yo'nalishlarini belgilab berishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tarixchi olimlarimizning sa'i-harakatlari bilan ko'plab viloyat, tuman va tarixiy-geografik hududlar tarixi haqidagi ilmiy tadqiqotlar yuzaga keldi.

Respublikamiz tarixini ayrim hududlar, shaharlar, viloyatlar misolida o'rganish, albatta o'tmishimizni yanada chuqur va mukammalroq tarzda yoritilishi uchun imkoniyat yaratadi.

Namangan viloyati o'z salohiyatiga ko'ra, Respublikamizda etakchi o'rinlardan birini egallaydi.

YUrtboshimiz ta'kidlab o'tganidek: «...Mamlakatimizning barqaror ravnaqini ta'minlashda namanganliklarning munosib hissasi bor....Namanganliklarni o'z ma'naviy va islomiy qadriyatlarini yuksak e'zozlab kelgan el sifatida bilamiz va katta hurmat qilamiz»⁹².

Viloyatlar xususan, Namangan viloyatining mustamlaka davri yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tarixini qiyosiy tahlil qilgan holda o'rganish fanning dolzarb vazifalaridan biridir.

Qo'qon xonligi tugatilgach, o'rnida tashkil etilgan Farg'ona viloyati mustamlakachilik zulmining yorqin namunasiga aylandi. Farg'ona viloyati iqtisodiy va mehnat resurslari jihatidan Turkiston general-gubernatorligidagi etakchi viloyat hisoblangan. U etti uezd (Qo'qon, Namangan, Skobelev, Andijon, CHimyon, CHust va O'sh) dan tashkil topgan bo'lib, uning tarkibida 91 volost yoki 613 qishloq jamoalari mavjud edi Namangan uezdi viloyatda o'ziga xos nufuzga ega bo'lib, u ham o'z navbatida volostlarga bo'lib idora qilingan. Namangan uezdi 19 ta volostdan iborat bo'lgan. Namangan uezdiing eng yirik shahri va ma'muriy markazi Namangan shahri edi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Namangan uezdidagi ijtimoiy-siyosiy ahvol mustamlaka manfaatlarini o'zida namoyon etar edi. Qo'qon xonligining tugatilishi va Namangan uezdining tashkil topishi oxir oqibatda milliy davlatchilikning barbod bo'lishi, o'lkada mustamlaka tartibotlarining o'rnatilishiga olib keldi. Namangan uezdidagi ijtimoiy-siyosiy ahvolning tabiiy ravishda madaniy hayotga ta'sir etar edi. Vaqf mulklarining qisqarishi, madrasa ta'lim tizimining izdan chiqishi olib kelgan bo'lsa, iqtisodiy qashshoqlik esa madaniy taraqqiyot yo'lidagi g'ovlardan biriga aylandi. XIX asrning ikkinchi yarmi Namangan adabiyoti tarixida muhim bosqichni tashkil etdi. Bu davrda Nodim, Ibrat, SHavqiy, Xilvatiy, Hayrat kabi etuk shoirlar boshchiligida mushtarak, serfayz bir adabiy muhit faoliyat ko'rsatdi va taraqqiy etdi. Adabiyotga ozodlik, istiqloq g'oyalari kirib keldi.

O'zbekiston qadimdan o'zining boy madaniy merosi, betakror tarixiy yodgorliklari, me'moriy obidalar bilan dunyo axlini maftun etgan. Afsuski, sho'rolar davrida madaniy yodgorliklarga etarli e'tibor berilmadi, natijada ko'plab obidalar vayron bo'ldi, buzib tashlandi. Istiqloq quyoshi porlashi bilan asrlar bo'yi bunyod etilgan, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolariga davlatimiz raxbariyati tomonidan aloxida e'tibor qaratildi. Mavjud madaniy yodgorliklar ro'yxatga olinib, ta'mirlash ishlari uchun etarli

⁹¹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 27 июлдаги «Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида»ги қарори //Ўзбекистон тарихи.-2001.-№1.-Б.3-5.

⁹²Каримов И.А. Ҳалол яшаш ва ҳалол меҳнат қилиш бурчимиз. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. Асарлар 5-жилд. Тошкент: Ўзбекистон, 1997.- Б.219.

mablag'lar ajratildi. Mustaqillik yillarida ko'plab masjid, madrasa, maqbaralar to'liq ta'mirlandi. Bu xayrli ishlar Respublika raxbariyatining doimiy nazoratida ekanligini aytib o'tish joiz.

O'zbekiston Respublikasi xududida dunyo tsivilizatsiyasi rivojlanishida katta o'rin tutgan, asrlar davomida shakllangan Samarqand, Toshkent, Xiva, SHahrisabz, Qo'qon, Marg'ilon, G'ijdivon, Vobkent, Termiz, Namangan, CHust, Kosonsoy, Pop va boshqa tarixiy shaharlar, 10101 dan ortiq me'moriy va tarixiy obidalar barpo etilgan. Jumladan, Namangan viloyatida 250 dan ortiq madaniy meros obidalari mavjud. Mustaqillik yillarida YUrtboshimiz tashabbusi va bevosita raxbarligi ostida o'zbek xalqining buyuk farzandlari, tarixiy shaharlarining yubileylarini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish, o'tkazish jarayonida, o'sha davrlarga taalluqli tarixiy yodgorliklar, me'moriy obidalar qayta ta'mirlandi, milliy an'analar bilan sug'orilgan ko'plab ajoyib zamonaviy me'moriy majmualar barpo etilib, madaniy merosimizni yanada boyitdi.

Prezidentimiz I.A.Karimov Marg'ilon shahrining 2000 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ta'kidlaganlaridek: «Bunday yuksak sharafiga munosib bo'lgan shahar va makonlar yurtimizda ko'p. Faqatgina mana shu Farg'ona vodiysining o'zida latif shahar deb nom olgan Qo'qon, qadimiy Andijon, go'zal Namangan, ko'xna Axsikent kabi tariximizda chuqur iz qoldirgan shahar va qo'rg'onlarning nomlarini ulug'lash va ularning xam qutlug' sanalarini keng miqiyosida nishonlash- bularning barchasi bizning oldimizda turgan katta vazifadir».

Viloyatimizda ham mustaqillik yillarida ajdodlarimiz merosini e'zozlash, asrash, kelajak avlodga etkazish va qadriyatlarimizni mustaxkamlash, fuqorolarimizni va yoshlarimizni o'z ajdodlari merosi an'analari ruxida tarbiyalash borasida katta tadbirlar muntazam ravishda amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, Namangan shahrida Mulla Bozor Oxund yodgorligi majmuasi, Nodim Namongoniy maqbarasi, «YOshlar» majmuasi, Mustaqillik maydoni, Boboraxim Mashrab uy-muzeyi va haykali, CHust shahridagi Mavlono Lutfullox majmuasi, To'raqo'rg'ondagi Ibrat uy- muzeylari, Kosonsoydagi ulug' alloma va mutafakkir Maxdumi A'zam Kosoniy majmualari bevosita viloyat xokimligining sa'yi- xarakatlari natijasida bunyod etilib, xalqimizga topshirilishi ajdodlar ruxiga bo'lgan xurmat va o'zligimizni anglash nishonasidir.

2001 yil 30 avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Madaniy meros ob'ektlarini muxofazalash va ulardan foydalanish to'g'risida» gi Qonuni tarixiy obidalarni muxofaza qilish va ulardan foydalanish soxasida jaxon talablariga mos xuquqiy asosni yaratdi. CHunonchi, qadimiy binolar tiklanyapti, ta'mirlanyapti, ularga qayta xayot baxsh etilyapti. Namangan shahridagi Mulla Qirg'iz madrasasi, Otaullaxon To'ra masjidi, Namangan tumanidagi «Sirli» masjid, Kosonsoy tumanidagi Jome' masjidi, Maxdumi A'zam Kosoniy majmuasi, CHust shahridagi Mavlono Lutfullox majmuasi va boshqalar yoshlarni ma'naviy-g'oyaviy jihatdan tarbiyalashda juda katta rol o'ynaydi.

Tadqiqotchi ilmiy ish natijalaridan kelib chiqqan holda quyidagi taklif va mulohazalarni bildiradi:

1. Namangan viloyatining mustamlaka davri tarixiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish;
2. Namangan adabiy muhiti haqida fundamental tadqiqotlar olib borish;
3. Namangan ma'morchiligining o'ziga xos jihatlarini yanada ko'proq yoritib berish;
4. O'zbek xalqi madaniyati rivojiga namangan adabiyot va san'at ahlining qo'shgan hissasini kengroq yoritib beruvchi ilmiy ko'rsatuvlar tayyorlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

Rahbar adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Halol yashash va halol mehnat qilish burchimiz. YAngicha fikrlash va ishlash davr talabi. Asarlar 5-jild. Toshkent: O`zbekiston, 1997.- B.219.
2. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari.-Toshkent: O`zbekiston, 1997.-B.140-141.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q.-Toshkent:SHarq, 1998.-3-8 b.
4. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e`tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir.-Toshkent: O`zbekiston, 2000.-B.34.
5. Karimov I.A. SHu muqaddas yurtga yorug` kunlar keltirish-har birimizning insoniy burchimizdir //Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. Asarlar 8-jild. Toshkent: O`zbekiston, 2000.-B.181.
6. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 iyuldagi «O`zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to`g`risida»gi qarori //O`zbekiston tarixi.-2001.-№1.-B.3-5.
7. Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.-Toshkent: O`zbekiston, 2011.-B.425.
8. Karimov I.A. Tarixdan saboq olib, zamon bilan hamqadam bo`lib yashash-bugungi hayotning o`tkir talabi. Prezident I.Karimovning interv`yusidan kelib chiqadigan xulosalar //O`zbekiston ovozi.-2012.-15 may.

Arxiv fondlari:

1. NVDA, 47-fond, 1-ro`yxat, 394-ish, 1-varaq.
2. NVDA.796-fond, 1-ro`yxat, 26-ish, 4-varaq.

Adabiyotlar:

1. Abduqahhorov A. Obidalar jilvasi.-Toshkent: O`zbekiston, 1992.-B.8.
2. Abdullaev O. Namangan viloyati (Tabiati, aholisi, xo`jaligi).- Namangan.: Namangan viloyati noshirlik bo`limi, 1995.-B.48.
3. Agzamxodjaev S.S. Iz istorii bor`bi za avtonomiyu Turkestana. Turkiston mustaqilligi va birligi uchun kurash sahifalaridan.-Toshkent: Fan, 1996.-S.32.
4. Akramov Z.M. Namanganskaya oblast` (istoriko-geograficheskiy ocherk).-Toshkent: Iz-vo AN Uz SSR, 1954.-S.32;
5. A`zamxo`jaev S.S. Turkiston Muxtoriyati.-Toshkent: Ma`naviyat, 2000.-B.131.
6. Bozarova M., Mirzaliev e. Namangan shahri tarixiga bir nazar (ma`ruzachiga yordam).-Namangan, 1998.-B.7.
7. Vohidova K. Ishoqxon Ibrat //Fan va Turmush.- 1995.-№4. -B.26
8. Vohidova K. Farg`onada jadid maktablari //Fan va Turmush.-2000.-№5.-B.23-24.
9. Dolimov U. Ishoqxon Ibrat.-Toshkent: SHarq, 1990.-144 b.
10. YOqubov B. Farg`ona vodiysida Sovet hokimiyatini o`rnatish uchun kurash.-Toshkent: Qizil O`zbekiston, 1954.-B.15.
11. Jadid teatri tarixidan /“Salohiyat-Mezon”.-Namangan, 2012.-B.28.
12. Jadidchilik va milliy istiqlol tantanasi.-Toshkent, 2002.-B.169-173.
13. Jadidchilik va milliy mafkura /To`plam. Jadidchilik va milliy istiqlol tantanasi.-Toshkent, 2002.-B.169-173.
14. Ziyoev H. Tarix – o`tmish va kelajak ko`zgusi.-Toshkent: Adabiyot va san`at, 2000.-288 b.
15. Ziyoev H. Turkistonda Rossiya tajovvuzi va hukmronligiga qarshi kurash.-Toshkent: SHarq, 1998.-B. 400-401.
16. Ismoilova J.H. Namanganda 1916 yil qo`zg`oloni //O`zbekistonda ijtimoiy fanlar.-1997.-№5.-B.29.

17. Ismoilova J.H. Farg'ona vodiysida 1916 yilgi xalq qo'zg'oloni /O'zbekistonning yangi tarixi. Kontseptual-metodologik muammolar.-Toshkent: Akademiya, 1998.-B.122.
18. Kasimbekov K. F. Iz istorii narodnix dvijeniy v Fergane v kontse XIX-nachale XX veka. Toshkent: Fan, 1978.-S.10.
19. Qozoqov T. «Muftah ul-avval»ning muallifi //Murabbiy.-2001.-1-15 noyab.
20. Qozoqov T. Jadidlar to'ylar haqida //Ma`rifat.- 1997.- 16 iyul.
21. Qozoqov T. Jadidchilik va milliy mafkura /To`plam. Jadidchilik va milliy istiqloq tantanasi.- Toshkent, 2002.-B.169-173.
22. Qozoqov T. Ma`rifat jonkuyari //Fidokor.- 2001.- 7 iyun.
23. Qozoqov T. Taraqqiyot kushandasi //Fidokor.- 1999.- 15 iyul.
24. Qozoqov T. Turkiston Muxtoriyati va Farg'ona jadidlari /To`plam. Jadidchilik va milliy istiqloq tantanasi.-Toshkent, 2002.-B.188-191.
25. Qozoqov T. Farg'onada jadid maktablari //Fan va turmush.- 1998.- № 5.- B. 8.-9.
26. Qosimov Y. Qora ko`zoynak bilan yozilgan tarix.-Namangan, 1993.-B.7,79.
27. Qosimov Y. Namangan tarixidan lavhalar.-Toshkent: Fan, 1990.-B.2.
28. Qosimov Y. O'zbekiston tarixini o`qitishda Namangan shahar tarixi materiallaridan foydalanish.-Toshkent: 1990.-B.26.
29. Latipov K. Farg'ona me`moriy obidalari.-Farg'ona, 1992.-B.56.
30. Mirzaaliev e.YU., Bozorova M.T. Namanganning XIX asr oxiri XX asr boshidagi sotsial-iqtisodiy va madaniy rivojlanishi.-Namangan: 1998.- B.45.
31. Nosirov O., M. Ma`murov. O'zbek adabiyotining muhim sanalari.-Namangan: Namangan Davlat Universiteti, 1993.-B.124.
32. Pedagogika tarixi.-Toshkent: O`qituvchi, 1996.-B.280.
33. Radjabov K. K. Istiklolchilik xarakati v Ferganskoy doline: Sushnost' i osnovnie etapi razvitiya (1918- 1924 g.g.): Avtoref. dis... kand. ist. nauk.-Tashkent: 1995.-32 s.
34. Rajabov Q. Jadidlar-istiqloqchilik harakatining g'oyaviy rahnamolari. O'zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar.-Toshkent: eldinur, 1998.-B.13.
35. Rajapov V. Namangan shahar xalq ta`limi tizimining rivojlanish tarixi.-Toshkent: Noshirlik yog'dusi, 2011.-150 b.
36. Rizaev SH. Jadid dramasi.-Toshkent: SHarq, 1997.-B.38.
37. Ro`zinov B. Namangan me`morlari //Namangan haqiqati.-2002.-25 may.
38. Sodiqov H. Turkiston uch inqilob davrida //Fan va Turmush.-1990.-№1.-B.13-15.
39. Tarix va taqdir: Farg'ona vodiysi tarixini tadqiq etish muammolari (Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari) Namangan: 2000.-B.72-101
40. Ubaydulloh A. Nodir obidalardan biri //Namangan haqiqati.-2007.-31 yanvar'.
41. Ubaydulloh A. Noyob yodgorlik //Namangan xaqiqati.-2006.-22 noyabr'.
42. O'zbekiston tarixi. 9-sinf uchun darslik.-Toshkent: O`qituvchi, 2010.B.65.
43. Farg'ona vodiysida jadidchilik harakati /«Tarix va taqdir: Farg'ona vodiysi tarixini tadqiq etish muammolari» mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari ma`ruzalar to`plami. I-kitob.- Namangan: 2000.- B. 73-75.
44. Xalilbekov A. Namangan adabiy gulshani.-Namangan, 2007.-468 b.
45. Hasaniy M. Turkiston bosqini.-Toshkent: Nur, 1992.-B. 39.
46. Erkturk. M.X. Sayyid Nosirxonto`ra //Turon tarixi.-1994.-№3.-B. 21.
47. YUsupov I.YU., Mirzaaliev e.YU. Namangan viloyati me`moriy obidalari sirlari.-Namangan, 2007.-B.48.

Dissertatsiya va avtoreferatlar:

1. Boltaboev S. Istoriya vakufnix imushestv v Turkestane vo vtoroy polovine XIX i nachalo XX vekov. Avtoref: diss. k.i.n.-Tashkent, 1995.-26 s.

2. Rasulov B. M. O`zbekistondagi musulmon maktab va madrasalari tarixidan (XIX asr oxiri - XX asrning 20 yillari) tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasi olish uchun yozilgan dissertatsiya.-Andijon, 1996.-B.61.
3. Kazakov T.K. Obshestvenno-politicheskoe polojeniei djadidskoe dvijeniev v Ferganskoy doline v nachale XX veka. Avtoref: diss. k.i.n.-Tashkent, 2001.-26 s.
4. Voxidova K.A. Isxakxan Junaydullaxodja Ibrat i ego nauchno-istoricheskoe nasledie. Avtoref: diss. k.i.n.-Tashkent, 2002.-28 s.